В глазах современного поколения литература больше не является сферой национального самосознания и национального саморефлексии. Теперь литература утратила свою важнейшую функцию - направлять людей в историческом пространстве и определять их жизненные ориентиры. Это стало своего рода развлечением и возможным досугом, чтение перестало быть престижным. В результате книжный рынок наполняется продуктами совершенно иного сорта, предлагая в качестве современных культурных персонажей доморощенного сыщика из книг Донцовой Дашу Васильеву или Фандорина из псевдоисторического романа Акунина [2].

Таким образом, если посмотреть на современную ситуацию, то можно констатировать, что утрата культурной литературности является неестественной и неорганической для русского сознания. Если общество хотело бы иметь что-то, что могло бы противостоять культурному и идеологическому вакууму нашего времени, оно должно вспомнить единственного и уникального носителя социально-исторической и культурной информации – литературу [4]. Его уникальность заключается в личном и даже интимном обращении к

каждому, кто берет книгу в руки, в возможности для каждого ощутить себя современником Петра Великого, Кутузова, Пугачева и ощутить чувства Гринева, князя Андрея и Алексашки. Меньшиков. Но для того, чтобы это произошло, читатели должны быть образованными, уметь и желать мыслить, одних писателей недостаточно. Только в этом случае русская литература сможет оправдать перед нынешним и будущими поколениями сам факт своего исторического существования.

Литература:

1. Агеев, А. Конспект о кризисе: социокультурная ситуация и литературный процесс / А. Агеев //Литературное обозрение. — 1991. — № 3.
2. Ермолин, Е. Вчера, сегодня, всегда: поход на истину в литературе 90-х: повод, ход и прогноз исхода / Е. Ермолин // Континент. — 1997. — № 92.
3. Социокультурная и литературная ситуация конца XX -- начала XXI века: общая характеристика.
4. Основные тенденции развития русской поэзии конца XX - начала XXI века: общая характеристика.
5. Состояние русской драматургии и театра в конце XX - начале XXI века: общая характеристика.

NAMANGAN VILOYATI QADAMJOLARI: TARIXIY ILDIZLARI

Abdullayev Ilxom Ikramovich
Namangan davlat universiteti magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7258357

Annotatsiya: Ushbu maqolada Namangan viloyati qadamjolari: tarixiy ildizlari haqida ilmiy izlanish olib borilgan. Tarixiy qadamjolarning bunyod etilishi va turistik qiyofasi aks ettirib berilgan.

Kalit so‘zlar: bronza va tosh asrlar, Kushon podsholigi, Labbaytog‘a dahasi, madrasa, xonaqoh va ziyoratgoh, Jome’ masjid, “baliqli mozor”.

Annotation: This article is a scientific study of the monuments of Namangan region: their historical roots. The construction of historical monuments and the tourist image are reflected.

Keywords: Bronze and Stone Ages, Kushan Kingdom, Labbaytaga district, madrasa, khanaqah and shrine, Jome 'mosque, "fish cemetery".

Namangan viloyati O‘zbekiston Respublikasining qadimgi maskanlaridan bo‘lib, bu mahalliy aholining ibtidoiy turmush tarzi haqida guvohlik beruvchi turli arxeologik topilmalar va me’moriy yodgorliklar shuningdek bronza va tosh asrlar yodgorliklari bilan tasdiqlanadi.

Miloddan avvalgi birinchi ming yillik madaniyatiga taalluqli hududlar Chust shahrida topilgan. Shahar miloddan avvalgi 4-3-asrlarda iqtisodiyot va hunarmandchiligi rivojlangan Kushon podsholigining poytaxti bo‘lgan.

Miloddan avvalgi III asrda Sirdaryoning qirg‘oqbo‘yi mintaqasida ulkan qal’alardan iborat Shahriston-Axsikent yirik shahri qurilgan. XVII asrda shahar zilzila tufayli vayron bo‘lib, aholisi Namanganga ko‘chib kelgan va bu ajoyib shaharning rivojlanishiga yaxshi ta’sir ko‘rsatgan.

Namangan – bu gullar shahri, shu bilan birga, Namangan viloyati o‘z kasbining ustasi bo‘lmish bog‘bonlar va uzumchilar makoni. Hunarmandchilik markazi bo‘lgan Chust shahri nafaqat O‘zbekistonda, balki chet ellarda ham pichoq ishlab chiqarish san’ati bilan mashhur.

O‘zbekistonning unumdor yerlaridan biri bo‘lgan Namangan viloyati Farg‘ona vodiysida joylashgan bo‘lib, g‘arbda Toshkent viloyati bilan, janubi-sharqda Farg‘ona va Andijon viloyatlari bilan chegaradosh.

Mulla Bozor Oxund maqbarasi xalqimizning tabarruk maskanlaridan biridir. Namangan shahridagi ushbu majmua bugungi kunga kelib go‘zal va jannatmonand joyga aylangan.

Gullar shahri — Namanganga tashrif buyurar ekansiz, Labbaytog‘a dahasida joylashgan Mulla Bozor Oxund yodgorligi o‘zining chiroyi, naqshinkor bezaklari va betakror qurilish arxitekturasi bilan o‘ziga maftun qiladi.

Mulla Bozor Oxund 16-asr oxirida Namangan shahrida tavallud topgan. U kishi Namangan madrasalarida ilm olgan. O‘z davrining fiqh, hadis, tarix, geografiya, ilmi-hisob, adabiyot, ruhiyatshunoslik bilimlarini mukammal egallagan. Shuningdek, turkiy, arabiy va forsiyda ijod qilgan. Ilmga tashnalik allomani Turkistonning ilmu fan markazlaridan biri - Buxoroga boshlab borgan. Talabalik yillari oshpazga shogird tushib, tirikchilik o‘tkazgan. Buxoroda donishmand olim Mirzo Bahodir Buxoriy bilan tanishgan, undan ta’lim olgan. Keyinchalik O‘rta va Yaqin Sharq mamlakatlari bo‘ylab sayohat qilgan. Qoshg‘arning Xo‘tan, Yorkand shaharlarida bo‘lgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, Mulla Bozor Oxund 1668 yil Namanganda vafot etgan.

Muqaddam u kishining qabri ustida maqbara va madrasa bunyod etilgan. Ushbu inshootlar XX asrning 30-yillarida butunlay buzib yuborilgan edi. 1993 yilda maqbarani me’moriy majmua sifatida qayta tiklash to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Qurilish ishlari 1994 yilning 18 mayida tugatildi. Uni Namangan bosh me’mori Abdujabbor Abdug‘afforov boshchiligidagi yosh, iqtidorli me’mor Odiljon Qodirov amalga oshirdi.

Mulla Bozor Oxund yodgorlik majmuasi 3 qismdan iborat: masjid, asosiy bino (xonaqoh va ziyoratgohga kirish) va darvozaxona. Hovlida diametri 10 metr bo‘lgan hovuz bor. U asta-sekin 8 ta o‘ttiz santimetrlik qadam bo‘ylab pastga tushadi. Uning asosi temir-beton panellardan iborat bo‘lib, devorlar va asosiy kirish eshigi noyob figurali dizaynda pishiq g‘ishtdan qurilgan.

Jome’ masjidning asosiy katta xonasi - xonaqohi yerto‘lali, pishiq g‘isht va temir-beton paneldan qurilgan. O‘lchami 30×24 metr. Sathi 720 kvadrat metr. Uch tomoni ayvon. Ustunlar va peshtoqiga milliy bezaklar berilib, pishiq g‘ishtdan tiklangan. O‘lchami 36×6 metr va 24×6 metr, sathi 576 kvadrat metr. Asosiy darvozadan kirishda qibla tomonda ayvonga tutash holda 16 metrli mezana - minora pishiq g‘ishtdan bezakli qilib tiklangan.

Majmuaga tashrif buyurgan ziyoratchilar va sayyohlar, ulug‘ donishmand hayoti va faoliyati haqida ma’lumotlar olish bilan birga mohir ustalar mahoratidan bahramand bo‘ladi.

Maqbara XVIII asrning ikkinchi yarmida, Namangan Farg‘ona vodiysining yirik shaharlaridan biriga aylangan vaqti qurilgan. Yodgorlikka qarab, milliy hunarmandlarning o‘lmas san’atiga tasanno aytasiz. Maqbara binosini bezatishda o‘yma naqshlardan foydalanilgan. Samarqandning XIV-XV asrlarga tegishli yodgorliklari, Buxoroning XVI-XVII asrlarga tegishli binolari rangli qoplamalardan ishlangan ajoyib naqshlari bilan yaraqlaydi, biroq o‘yma naqshlarni ko‘rmaysiz. Lekin, XVIII asrning ikkinchi yarmida Namangan maqbarasida o‘yma naqsh

ishlatilgani hayratlanarli. Maqbaraga kiraverishda bo‘rtma harflarda “Abduraim o‘g‘li usta Muhammad Ibrohimning asari”, deb yodgorlikni qurgan ustaning ismi yozilgan.

Binoning old tomoni nayzasimon ark shaklida, burchaklarida guldasta naqshli baland peshtoq bor. Portal arki tepasiga P shaklida hoshiya bilan ishlov berilgan, ular ingichka va qalin tasmalar almashinuvida ishlangan bo‘lib, guldasta hamda geometrik naqshlar bilan bezatilgan.

Qalin hoshiyalar o‘yilgan chinni terrakota tasmalari bilan bezatilgan, ingichkalari esa alebastr ustiga ikki qavatli o‘yma uslubida bajarilgan. Ma’lumki, binoning pastki qismi avvallari qizil rangga bo‘yalgan bo‘lib, ochiq oq rangli o‘yma uchun fon o‘rnida bo‘lgan. Hozirgi vaqtga kelib ikkala qavati ham bir xil rangda va o‘yma terrakota chinnidan, deyarli farqi yo‘q.

Namangan viloyatida Xoja Amin maqbarasi, Mavlon Buva majmuasi va boshqalar kabi ko‘plab tarixiy joylar va ziyoratgohlar mavjud.

Xo‘ja Amin maqbarasining badiiy bezagi yuqori did bilan mohirona bajarilgan. Alohida bo‘laklarida butun kompozitsiyasi kabi badiiy hissiyotlar, marom va mutanosiblik ruhi kuzatiladi. Shu bilan birga butuni va bo‘laklari bir butun uslubda birlashgan.

Garchi, o‘yma yozuv va naqshlari gul va geometrik shakllarda bajarilgan bo‘lsa-da, naqsh madaniyati boyligi va turli xilligi bilan kishini lol qoldiradi. Rassom didi va mahirona ijrosi orqali nafis bejirimlik namunasini yaratgan.

Yangiqo‘rg‘on tumani Oq tom qishlog‘idagi “Axtam Saxoba” ziyoratgohi

Yangiqo‘rg‘on tumanidagi tabarruk ziyoratgohlardan biri hisoblanib, Oqtom qishlog‘ida joylashgan. Qishloqning nomlanishi tarixi ham shu ulug‘ zot nomi bilan bog‘liq. Axtam sahobaning to‘rt o‘g‘illari bo‘lgan, deyishaji. Oqtom qabristonidagi muborak uch qabrning o‘rtasida ota, ikki yonlarida esa ikki o‘g‘illari joy olishgan ekan.

Uychi tumani Fayziobod qishlog‘idagi “Devonabuva” maqbarasi

Namangan viloyati Uychi tumanidagi peshtoqli, gumbazli Devonabuva maqbarasi tashqi ko‘rinishidan XVI asr oxirlarida yuzaga kelgan katta gumbaz - peshtoqli xajm ko‘rinishiga kelgan qoidaga ko‘ra, to‘rt tomondan teshiklar bilan bo‘lingan. Kirish peshtoqi qismlari va o‘lchamlariga ko‘ra maqbara xonaqoxini eslatadi.

XVIII asr yodgorliklariga xos bo‘lgan gumbaz abrisining past qismidagi tik sinish va gumbazning cho‘qqisidagi uncha baland bo‘lmagan ko‘tarilishning mavjudligidir.

Maqbara pishiq g‘ishtdan qurilgan. Tomonlar xajmi 25 -27 sm, qalinligi 4,5 -5 sm ganchli qorishmadan 10 qatorga 10 choklidan 73 sm o‘lchamda qo‘yilgan. Peshtoq taxminan XIX asr oxirida rus g‘ishti bilan ta’mirlangan. Binoning ichki

ko‘rinishi suvoq bo‘ylab bir necha marotaba gul bilan bezalgan. Tasvirlar mavzusi o‘simliklar (majnuntol shoxchalari, gulli gultuvaklar) va maxsus o‘rganishni talab etuvchi epigrafikadan iborat. Xozirgacha o‘rganilmagan Devonabobo maqbarasi o‘zining me’moriy qiyofasi bilan serviqor va o‘ziga xosdir.

Bibi Naima (sutli buloq) ziyoratgohi va masjidi

Mazkur ziyoratgoh Chortoq tuman sobiq Bobur shirkat xo‘jaligi xududida joylashgan. Bibi Naima ona Sulton Uvays Karaniyning onalari bo‘lib, qabrlari “baliqli mozor” ziyoratgohidan uncha uzoq bo‘lmagan joyda joylashgan. Bibi Naima ona ziyoratgohiga XII - XIII asrlarda maqbara tiklanib, shundan beri bu joyga ziyoratchilar kelib turishadi.

“Zirkmozor” ziyoratgohi

Zirkmozor ziyoratgohi Chortoq tumanining Arbag‘ish qishlog‘ida joylashgan bo‘lib, muqaddas qadamjolardan xisoblanadi. Xalq orasida boshqa ziyoratgohlar kabi bu joy xaqida xam turli rivoyatlar mavjud. Aytishlaricha, payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) vafotlaridan oldin o‘zlarining qimmatbaho to‘nlarini Sulton Voizga meros qilib qoldirganlar. Uni egasiga topshirishni o‘z yaqinlariga vasiyat qilgan ekanlar. Ularning vafotlaridan keyin bu to‘nni Sulton Voizga topshirish vazifasi Payg‘ambarimizning kuyovlari Xazrati Aliga yuklatilibdi. Xazrati Ali Sulton Voizni axtarib Zikrmozorga kelibdilar va o‘sha yerda nomoz o‘qibdilar. Xazrati Ali namoz o‘qiyotganda boshlarini qo‘ygan joydan daraxt, hassalarini sanchib qo‘ygan joydan esa buloq chiqqan emish. Shuning uchun bu joy Xazrati Alining qadamlari yetgan aziz joy hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Т.: Ўқитувчи; 2001. – Б.122-123.
2. Ҳудуд ул-олам. – Т.: O‘zbekiston; 2008. – Б.64.
3. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: Шарқ; 2002. –Б.336.
4. Список насселённых мест Узбекской ССР и Таджикиской АССР. Выпуск III. Ферганская областъ. – Самарканд, 1925. – С.1-4.
5. Қосимов Й. Наманган воҳасини суғорилиш тарихидан. –Т.: Фан; 1988. – Б.45.
6. Мирзалиев Э.Ю., Базарова М.Т. Наманганнинг XI аср охири – XX аср бошидаги социал-иқтисодий ва маданий риқожланиши. – Наманган. 1998. – Б.7.
7. Rustamaliyev, Mirjalol Hayrullo O‘G‘Li. "Rajiv Gandi hokimyati davrida Hindistondagi siyosiy inqiroz." *Science and Education* 3.5 (2022): 1097-1101.

XALQ OG‘ZAKI IJODI – MA’NAVIY MEROS POYDEVORI

Kimsanboyeva Zuhra Saminjon qizi
NamDU Ijtimoiy gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi
Ma’naviyat asoslari yo‘nalishi 1-kurs magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7258371

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalq og‘zaki ijodi – ma’naviy meros poydevori ekanligi haqida ilmiy izlanish olib borilgan. O‘zbek xalqining qadimiy an’ana va qadriyatlari maqolada yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: globallashuv, konstitutsiyaviy burch, xalq og‘zaki ijodi, Alpomish, urf-odat, Alp Erto‘nga, To‘maris, vatanparvarlik.

O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotida ko‘plab yutuqlarga erishayotgan bir paytda, bevosita xalqning ma’naviy dunyosini va dunyoqarashining saviyasini yuksaltirishda o‘z navbatida ma’naviy tarbiyaning ahamiyati beqiyos. Bugungi globallashuv jarayoni o‘z cho‘qqisiga erishayotgan vaqtda xalq ma’naviy dunyosi va o‘zligini saqlab qolish eng dolzarb masala bo‘lib qolmoqda va albatta bu masalani ma’naviy merosga tayangan holda amalga oshirishni taqazo etadi.

Ma’naviy meros – bu xalqimizning qadim tarixi davomida ajdodlardan avlodlarga meros bo‘lib qolgan ilmiy, badiiy, tarixiy asarlar, nodir qo‘lyozmalar, me’moriy obidalar hamda moddiy va amaliy sanat asarlari hisoblanadi. Shu bilan birga xalq og‘zaki ijodi namunalari ma’naviy va madaniy merosning asosini tashkil qiladi. Ushbu madaniy va ma’naviy merosni asrab avaylash barcha O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining konstitutsiyaviy burchidir.

Ma’naviy meros hamda o‘zbek xalqining ma’naviy dunyosini shakllantirishda xalq og‘zaki ijodining har bir nafasi muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq og‘zaki ijodining barcha turlari shaxs ma’naviyatining har bir bosqichida namoyon bo‘ladi. Ma’naviy meros xalq og‘zaki ijodi orqali inson tug‘ilgan onidan boshlab ona allasi bilan birgalikda singib boradi. Allaning har bir so‘ziyu nolasi orqali onaning farzandga bo‘lgan muhabbati va onaning bola tarbiyasida qanchalik muhim inson ekanligini ifodalaydi.

Inson qadimdan atrof muhitda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga o‘z munosabatini bildirgan. Bu munosabat, avvalo, turli xatti-harakadar, ovozlar, ehtiroslar vositasida amalga oshgan. Keyinchalik so‘zlar, so‘z yig‘indisi, raqslar his-tuyg‘ularni ifodalagan. Yana keyinroq odamlar o‘zlaricha dunyoning, tabiatning, hayvonlar, o‘simliklar, tog‘lar, suvlarning paydo bo‘lishini izohlovchi to‘qima hikoyalar o‘ylab topadilar. Yigitlar, qizlar muhabbat qo‘shiqlarini to‘qiydilar. Qabila-urug‘ning mard va jasur yigitlari haqida, ulaming g‘aroyib qahramonliklari haqida

afsona va rivoyatlar paydo bo'ladi. Bularning hammasi hali yozuv madaniyati vujudga kelmasdan oldin jamoa-jamoa bo‘lib yashayotgan aholi o‘rtasida shuhrat topadi. Bugungi kunda biz ulami “xalq og‘zaki ijodi” deb atashga odatlanganmiz.

Xalq og‘zaki ijodida ota-bobolarimizning aytmoqchi bo‘lgan pand-nasihatlari, el e’zozlagan odam bo‘lishning talab-qoidalari, Alp Erto‘nga, To‘maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi ajoyib yurt farzandlarining botirliklari, xalqimizning urf-odatlari, milliy fazilatlarimiz haqida san’at darajasiga ko‘tarilgan so‘z tizimlaridan iborat maqol, qo‘shiq, ertak, doston, bolalarga bag‘ishlangan asarlar va boshqa janrlardagi namunalarda ifodasini topadi. Shuning uchun ham xalq og‘zaki ijodini milliy qadriyatlar deb atash odat bo'lgan.

Ma’naviyat qadim zamonlardan inson dunyoqarashini, xatti-harakatini, jamiyatda tutgan o‘rnini, xalqqa, vatanga, atrofidagi odamlarga bo‘lgan munosabatini boshqaruvchi omil hisoblanadi. Ma’naviy qashshoq kimsa hayotda ro‘y berayotgan voqealarga loqayd bo‘ladi. Loqaydlik esa tuzatib bo‘lmas oqibatlarga olib keladi. Ma’naviy qashshoq odam uchun Vatan, xalq, oila kabi muqaddas tushunchalar yot. Shuning uchun keksa avlod, avvalo, farzandning ma’naviy dunyosini shakllantirish chorasini rejalashtirgan. Aslini olganda, xalq dostonlari, ertaklari, qo'shiqlari, maqollari va boshqa o‘nlab janrdagi asarlar yosh avlodning ma’naviyatini boyitish, uni haqiqiy inson darajasiga yetishini ta’minlash maqsadini nazarda tutgan holda yaratilgan. O'tgan asrgacha bugungi kundagi matbuot, o'quv dargohlari, madaniyat markazlari, radio, televideniye, internet kabi ta’lim, ma’rifat tizimi bo'lmagan. Bu vazifalami bajarish, asosan, xalq og‘zaki ijodi zimmasiga yuklatilgan. Natijada, xalq og‘zaki ijodi xalq pedagogikasi zaminini tashkil etgan. Odatda, xalqning mustaqilligi, uning ravnaqi badiiy adabiyot bilan uzviy bog‘lanadi. Og‘zaki ijod esa, badiiy adabiyotning ajralmas qismidir. Shuning uchun xalq ustidan hukm yuritishga harakat qilgan hokimiyat, avvalo, uning adabiyotini boshqarishga uringan. Sobiq sho‘ro tuzumi sharoitida xalq bayrami - Navro'z, “Alpomish”, “Ravshan” dostonlarimiz taqiqga uchragan. Folklor ekspeditsiyasiga xalq og‘zaki ijodi asarlarini yozib olish maqsadida chiqilganida, islom diniga oid asarlari yozib olish ma’qul ko'rilmas edi.

Mustaqillik, umuman, xalq qadriyatlariga, xususan, xalq og‘zaki ijodiga boigan munosabatda keskin ijobiy o‘zgarish yasadi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimovning “O‘zbekiston buyuk kelajak sari” asaridagi “Mustaqil O‘zbekistonni rivojlantirishning ma’naviy-axloqiy negizlari” deb atalgan bo‘limida: “O‘zbekistonni yangilash va rivojlantirishning yo‘li to‘rtta asosiy negizga asoslanadi”, - deyilgan. “Bu negizlar:

-umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;

-xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;

-insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;

-vatanparvarlik[1]

- deb belgilab qo‘yilgan. Yuqorida qayd etilgan to‘rt negizning har biri yo bevosita, yo bavosita xalq og‘zaki ijodi, ajdodlarimizning bizga qoldirgan ma’naviy boyligi - pand, o‘gitlari, el-yurt qadrini e'zozlash, millatimiz g‘ururini himoya qilishdek oliy tuyg‘ular bilan bog‘lanadi. Haqiqatan ham, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, avvalo, milliy qadriyatlarga sadoqat mezoni bilan o‘lchanadi. Zero o‘z qadrini bilmagan farzand o‘zganing qadriga etmaydi. Xalqimiz og‘zaki ijodidagi asarlarda esa aynan ana shu g‘oya o‘z ifodasini topgan. “O‘zbekiston buyuk kelajak sari” asarida ilgari surilgan fikrlar izchillik bilan hayotga tatbiq etila boshlandi. Xalq yurtboshi tomonidan aytilgan har bir mulohaza bevosita davlat siyosati sifatida ro‘yobga chiqishiga ishondi. Bunday rejalar esa xalq og‘zaki ijodi ham davlat maqomiga ega ekanini tasdiqlaydi.

O‘zbek xalq ijodi qamrovi nihoyatda keng, bag‘oyat serqirra va serjilo tushunchadir. U xalqning paydo bo‘lishi bilan paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Unda xalqning orzu-umidlari, qarashlari, hayoti keng bayon etiladi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalaridan maqol, topishmoq, tez aytish, qo‘shiq, ertak, dostonlarda bola tarbiyasining ma’lum bir xususiyatini o‘zida aks etadi. Yoshlarni mardlik, halollik, jasurlik ruhida tarbiyalashda , ma’nan pok va barkamol qilib voyaga yetkazishda xalq og‘zaki ijodining noyob durdonasi bo‘lmish “Alpomish” dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo‘y bo‘lishga, o‘z yurtini, oilasi, qo‘rg‘onini qo‘riqlashga, do‘sti, or-nomusini, ota- bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzlardan saqlashga, ma’naviy- axloqiy pok bo‘lishga o‘rgatadi. “Alpomish” dostoni ijodiy tafakkurimiz, ma’naviy boyligimizning yorqin namunasi bo‘lib, tarixiy ildizlarimizning qanchalik chuqur ekani, xalqimiz qanday muhitda shakllanib, rivojlangani, qiyinchiliklarni qanday yengib chiqqanini yorqin tasvirlab beradi.

1999-yil 9-noyabr kuni esa “Alpomish”ning ming yillik to‘yi nishonlandi. Bu tantanada so‘zga chiqqan birinchi prezidentimiz Islom Karimov dostonning millatimiz g‘ururini tarbiyalashdagi ahamiyatini alohida ehtirosli so‘zlar bilan izhor etdi: “Alpomish” - o‘zbekning o‘zligini namoyon etadigan, mard va tanti xalqimizning yurak-yuragidan chiqqan, ota-bobolarimiz avlodlardan avlodlarga o‘tkazib kelayotgan qahramonlik qo‘shig‘idir”[2]. Nutqda dostonning xalq tarixiga oid ma’lumotlarga boy ekani, yosh avlodni tarbiyalashda juda muhim ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Yurtimiz boshlig‘ining dostonga nisbatan hurmati quyidagi jumlada o‘z ifodasini topgan: “Aslida xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tuganmas bir doston bo‘lsa, “Alpomish” ana shu dostonning shohbaytidir”[3].

“Xalq og‘zaki ijodi - so'z san’ati” deganimizda, shuningdek, ertakchi, baxshi, qo'shiqchi, askiyaboz, latifachi ijrochilaming tinglovchilarga bag‘ishlayotgan ma’naviy lazzatini ham unutmaslik lozim. Xalq qo'shiqlarida aks etgan his-tuyg‘u, ichki kechinmalar; ertaklardagi g‘aroyib voqealar; dostonlardagi go'zal tasvirlar, eng

avvalo, zargarona tanlangan so'zlardan iboratligi, ikkinchidan, ulaming mahorat bilan ijro qilinishi asrlar davomida xalqimizga zavq bag‘ishlagan. Shuning uchun ham mazkur asarlar o'zbek xalqi ma’naviy xazinasining bebaho qadriyatlari sifatida hamisha e’zozlangan.[4]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A.O‘zbekiston buyuk kelajak sari. - T.:O‘zbekiston, 1998. - B. 56
2. Karimov I.A. “Alpomish” dostonining 1000 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi nutqi II Xalq so‘zi, - 1999. - 9 noyabr
3. Karimov I.A. “Alpomish” dostonining 1000 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi nutqi II Xalq so‘zi, - 1999. - 9 noyabr
4. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi – T.:Mumtoz so‘z 2010. – B.14

ЎЗБЕК ЭСТРАДА ҚЎШИҚЧИЛИГИ ҲАҚИДА ИЛМИЙ ФИКР

Артыкбаева Дурдона Алишеровна
“Мусиқа тарихи ва танқиди” кафедрасининг курс талабаси
Ўзбекистон давлат консерваторияси
https://doi.org/10.5281/zenodo.7258501

Аннотация: В предлагаемая статья рассматривается уровень изучения музыкаведами на тему “узбекской эстрадной музыке и узбекские песни”.

Аннотация: Тавсия этилган мақолада “Ўзбек эстрада мусиқаси ва ўзбек эстрада қўшиқчилиги” мавзуси мусиқашунос олимлар томонидан ўрганиш даражаси ҳақида сўз боради.

Annotation: The proposed article examinas the level of study by musicologists on the topic “ Uzbek pop music and Uzbek song”

Ключевые слова национальное эстрадное исскуство, новая техногогия исполнения.

Калит сўзлари миллий эстрада санъати ,ижро этиш янги технологияси.

Keywords new technology of performance of national pop art.

Ўзбек мусиқий эстрадаси соҳаси ҳозирги кунга қадар турли авлод мусиқашунослари томонидан тадқиқ қилинганлигини кўрамиз. Масалан, санъатшунослик фанлар номзоди С. Воҳидовнинг “Ўзбек совет қўшиғи” тадқиқотида ўзбек эстрада мусиқасининг XX асрда юзага келиши асосан композиторлик ижоди кесимида ўрганилади ва бунда муаллиф асосий эътиборни “оммавий қўшиқ” хусусиятини касб этган жанр, унинг оҳанг асоси ҳамда ундамиллий мусиқа унсурларини тутган ўрни кабилар ҳақида жиддий мушоҳадалар юритади.[9]

Л. Юсуповнинг номзодлик диссертациясида эса мусиқий эстрада масалалари турли ижодий жамоалар ва, энг аввало, жаз гуруҳлари, Ўзбек эстрада симфоник оркестри (ЭСО)ҳамда вокал - чолғу ансамбллари мисолида тадқиқ қилинади.

Санъатшунослик фанлари номзоди О.Бековнинг “Замонавий ўзбек эстрада қўшиғи Ўзбекистон мусиқа маданияти кесимида” номли тадқиқотида “ эстрада” атамаси жуда кенг талқин қилиниб, унинг маъносида умуман саҳнавий санъат, яъни катта ва кичик (ҳатто ашула, мақом ва б.) жанрларнинг асосан саҳна билан боғлиқ намоён бўлиши тушунилади. Шу билан бирга муаллиф миллий эстрада қўшиқларининг келиб чиқиш илдизлари тўғрисида ҳам қизиқарли фикр-мулоҳазаларни баён этган. О.Беков 1980-йиллари ўзбек мусиқий эстрадасида

[9] Вахидов С. Узбекская советская песня. – Т.; ГИЛИ им. Г. Гуляма, 1976. (с12 – 17)

тамойил кучини ола бошлаган кўр-кўрона тақлидчилик ва “кўчирмачилик” ҳолатларини асосли равишда танқид остига олганлиги ҳам эътиборлидир.[10]

Санъатшунослик фанлар доктори, профессор Т.Б. Ғофурбековнинг “Эстрадиция” узбекского фольклора” мақоласида эстрада соҳасининг мусиқий фольклорга таъсири ҳақида жиддий фикрлар ўртага ташланиб, бу борада эришилган ютуқ ва муаммоли ҳолатлар тилга олинади. Масалан, шу асосда ўзбек эстрада қўшиқчилигида янги фактурали гармоник ҳамда ладо – ритмик сифатлар юзага келгани маълум натижа, албатта. Муаллиф Лариса Москалёва, Севара Назархон ҳамда “Нола” гуруҳи мисолида ўзбек эстрада мусиқасига ижобий уйғунлашаётган хориж (жаз ва б.) мусиқаси анъаналарини теран таҳлил қилади. Аммо шу билан бирга, эстрада қўшиқчилигида “кўчирмачилик” (плагиатлик) салбий ҳолатлари тобора ортиб бораётганлиги ташвишлидир. кучли тамойил сифатида ҳозирлаб келаётган кескин танқид қилинган.

Санъатшунослик фанлар доктори, профессор Н.С.Янов-Яновскаянинг “Ўзбек мусиқа маданиятининг ҳозирги давр ривожланиш босқичи ҳақида” (“О современном этапе развития узбекской музыкальной культуры”) номли мақоласида композитор ва мусиқий эстрада муносабатлари хусусида эътиборли фикр-мулоҳазалар юритилади. Муаллиф мусиқий эстраданинг бугунги кунда жадал ривожланиб бораётганлигини эътироф қиларкан, шу муносабат билан қуйидаги ўта жиддий муаммони ўртага ташлайди: “Эндиликда композиторлик санъати оммавий мусиқа босимига бардош бериши лозим. Санъатни “ руҳнинг жиддий меҳнати”дан кўра кўнгилҳушлик домига тортаётган поп – маданиятнинг ҳужуми айниқса мусиқанинг маънавий кучига таянган Шарқ ҳудудлари учун долзарб муаммо бўлиб қолди”[11].

Н.Амонованинг мусиқий эстрадага доир илмий мақолалари ҳамда Д.Омонуллаева билан ҳамкорликда ёзган “Жаз ва эстрада мусиқаси тарихи”[12] ўқув қўлланмасида шу жабҳада юзага келган турли услуб ва йўналишлар ҳақида зарур маълумотлар берилади.

Ўрганилаётган мавзу кесимида санъатшунослик фанлари номзоди Д. Муллажоновнинг илмий изланишлари алоҳида аҳамият касб этади. Чунки муаллиф “1990-йиллар ўзбек мусиқий эстрадасида оҳанг муаммоси” мавзуида номзодлик диссертациясини бажарган ҳамда шу асосда бир қатор илмий мақолаларини матбуотда эълон қилган эди.

Лола Абидова “ Жаз тарихи ва замонавий эстрада мусиқий услублари” китоби академик лицей ва мутаҳассис коллежлар учун қўлланма бўлиб, унда

[10] Беков О. Современная узбекская эстрадная песня в контексте музыкальной культуры Узбекистана., Т.; СИТИ. М (м) Б – 42 № 931. 1994.
[11] Янов – Яновская . О современном этапе развития узбекской музыкальной культуры. / / Ж. Общесивенные науки в Узбекистане. 1992. № 5 – 6.
[12]Амануллаева Д., Аманова Н. История джаза и эстрадной музыки. Т.: Санъат, 2010; Аманова Н. Основные этапы развития узбекской эстрадной музыки……..

эстрада мусиқаси 3 қатламга бўлиниб ўрганилади: жаз, рок – мусиқаси ва поп мусиқаси. Китобда замонавий эстрада мусиқаси 3 даврга ажратилади.

Ўзбекистон давлат кафедраси “ Мусиқа тарихи ва танқиди” кафедрасидоценти, с.ф.н. Гулшаной Турсунова ўзининг “Ўзбекистонда эстрада санъатини шаклланиш ва ривожланиш босқичлари” номли тадқиқодларида Х.Х. Ниёзий давридан бошлаб ҳозирга қадар Ўзбекистонда эстрада санъатининг шаклланиш ва ривожланиш жараёнида ўз ҳиссаларини қўшган ижодкор ва ижрочиларнинг ижодий фаолиятлари ҳақида батавсил тавсилотлар берадилар.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1.1. Азимова О. Вопросы синтаксиса восточной монодии. – Т.:Фан, 1989.

1.2. Азимова О. Вопросы синтаксиса восточной монодии: К истории его становления и развития. Т.:Фан. 1998. – 103 с.

1.3. Амануллаева Д., Аманова Н. История джаза и эстрадной музыки. Т.: Санъат, 2010.

1.4. Аманова Н. Основные этапы развития узбекской эстрадной музыки. В сб: Ўзбекистон санъати макон ва замон талқинида Тошкент, 2011

1.5. Беков О., Муллажонов Д. Миллий эстрада санъати. // Ўзбекистон санъати (1991 – 2001йиллар). – Т.; “Шарқ” нашриёт - матбаа акциядорлик компанияси, 2001.

1.6. Вахидов С. Эстрадная песня // Узбекская музыка на современном этапе. Т.; ГИЛИ им. Г. Гуляма. 1977. – 123 – 139с.

1.7. Вахидов С. Узбекская советская песня. – Т.; ГИЛИ им. Г. Гуляма, 1976.

WAYS TO INCREASE THE EFFECTIVENESS OF SCIENCE LESSONS IN PRIMARY EDUCATION ON THE BASIS OF ADVANCED PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

Eshpulatova Jangil Eshonqulovna
Pedagogical Institute of Termez State University 1-course master's degree
https://doi.org/10.5281/zenodo.7258509

Аннотация: Данная статья посвящена раскрытию путей повышения эффективности уроков естествознания в начальных классах на основе передовых педагогических технологий.

Ключевые слова: Образование, воспитание, человек, личность, общество, свободная личность, педагогика, педагог, методика.

Annotation: This article is dedicated to revealing ways to increase the effectiveness of science lessons in primary education on the basis of advanced pedagogical technologies**.**

Keywords: Education, upbringing, person, person, society, free person, pedagogy, teacher, methodology.

Our main shortcoming was that, as the head of state said, we viewed primary education as secondary. However, the simple logic itself requires that the most mature, most experienced coaches be attached to the primary classes, where the child's worldview, language and potential are formed.

One of the factors of reforming the education system in the country is "the interests of the individual and the priority of education." As this determined the social policy of our state, a new model of education was created.

Its main initiator and leader, President of the Republic of Uzbekistan Sh.M.Mirziyoev, was involved in the implementation of this model in the pedagogical process.

Based on the results of the "explosion effect" that occurs in all aspects of our lives, it is shown that:

- The process of finding one's place in life accelerates.
- leads to the formation of an independent thinker in society.
- plays an important role in realizing the potential (positive) forces of our society.
- ensures the construction of a civil, free and democratic society.

To be more precise, this model will help to take a worthy place in the world and make the Uzbek name more widely known.

It should also be noted that teachers today often confuse methodology with technology. It is therefore necessary to clarify these concepts. The methodology consists of a set of recommendations for the organization and conduct of the educational process. Pedagogical technology is the final complex of education, which renews the professional activity of the teacher.

Pedagogical technology is the process by which the teacher-educator influences the pupils (students) through the means of education and the formation of pre-defined personal qualities in them as the responsibility for this activity. It is clear from the above definition that the technological process was used as a basis in the interpretation of the concept of pedagogical technology.

In the pedagogical literature there are different forms of the term "technology". For example, "Teaching Technology", "Educational Technology", "Information Technology", "Learning Technology" and others.

While teaching technology is a concept similar to pedagogical technology, it does not mean exactly the same. Because it expresses the way of mastering specific teaching (lesson) materials within the topic and questions around a certain technology. It stands, moreover, alongside a private methodology. Pedagogical technology represents the tactics of the introduction of information technology, and the teacher - the pedagogical process, (learning (lesson) process) - the student is built on the knowledge of the laws of the functional system.

Thus, pedagogical technology differs from methodology by its flexibility, stability of results, efficiency, the need for pre-design.

It is clear from the above definitions that pedagogical technology is interpreted as the design of the learning (lesson) process on the basis of the defined primary goal and content.

In many countries, on the one hand, this technology is to some extent solved, on the other hand, it represents a certain result of attempts to introduce pedagogical technology into pedagogical practice. For many years, the theory and practice of pedagogical technology have been studied independently.

As a result, one or another methodology aimed at improving the teaching process or developing students' cognitive activity has not been able to rise to the level of technology, and has gradually lost its status and moved away from the science of pedagogy.

The combination of theory and practice allows us to determine the true nature of pedagogical technology. In our view, advanced pedagogical technologies cannot be viewed as a theory of education or as a system aimed solely at approving educational

practice. Advanced pedagogical technologies mainly reflect the activities within the framework of combining theoretical and practical research in the field of education.

The use of words such as advanced, modern, and new in pedagogical technology in this article and literature has puzzled some researchers and teachers. They are now realizing that the old-fashioned approach to designing the educational process is no longer possible. So what does “advanced pedagogical technology” mean?

First, advanced pedagogical technology is designed for the educational process and is aimed at solving the set goal on the basis of the most effective methods. Consequently, each society defines a specific pedagogical system in order to shape the individual. This system is continuously influenced by social order and determines the purpose of education in general. The goal is to update the remaining elements of the pedagogical system.

At present, the National Program of Personnel Training also defines the purpose of education in a new direction, that is, to get rid of the ideological views and stereotypes of the past, to train highly qualified personnel who meet the highest moral and ethical standards in developed democracies. The purpose of education, and in accordance with it, the content has been completely renewed, so it is natural that the pedagogical process is self-renewi

Second, with the development of science and technology, the boundaries of human activity are expanding exponentially, with the introduction of advanced technologies that have a wide range of teaching opportunities in the classroom. The qualitative changes that have taken place indicate that the primary processes of “learning” are no longer in line with traditional methods and general tools, and do not correspond to the individual abilities of the teacher.

This means that there are new technical tools that require new methodologies, which are becoming an integral part of the educational process and introduce certain features into it, which are making advanced pedagogical technologies a reality.

In short, pedagogical technologies are essentially on a par with other technologies because they, like others, have their own field-specific methods and tools.

They also deal with certain “material”, but pedagogical technologies differ from production, biological, and even information technologies in that they represent a complex and incomprehensible pedagogical process as a field of knowledge related to the human mind. Its distinctive feature is that it combines the components of education with education.

List of references:

1. Sayidaxmedov N.S. Examples of the use of new technologies in pedagogical practice. - T .: 2000 y, - 46 p. Pages 10-13 in Chapter 2.

2. Sayidaxmedov N.S. History of the development of the concept of pedagogical technology. - Ma'rifat, 1999 March 17 Page 105. Chapter 2

3. Sayidaxmedov N.S. New pedagogical technologies (theory and practice) - T .: "Finance" Publishing House, 2003. - 172 b. 6-9, 30-33, 80-81 Chapter 1.

4. Sultonov T.A. Pedagogical skills (textbook) - T .: TDPU named after Nizami, 2005. - 149 b. Pages 132-137. In Chapter 2.

5. Tojiev M., Alimov A.Ya., Quchqarov D.U. Pedagogical technology - its application to the educational process. - T .: “Tafakkur”, 2010. - 147 b. Pages 6-7,16-17 Chapter 3.

6. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogical technology and pedagogical mastery. Tashkent TDPU. 2003. 174 6. p.92. Chapter 1

7. Tolipov O'Q, Usmonboeva M. Applied bases of pedagogical technologies. (Textbook) - T .: "Fan" Publishing House, 2006. - 261 b. (Pages 78-85 in chapter 1), (pages 228-231 in chapter 2).

ТЕХНОЛОГИЯ ДАРСЛАРИДА ДАСТУРЛАШТИРИЛГАН ТАЪЛИМ ВОСИТАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШГА ҚЎЙИЛАДИГАН ДИДАКТИК ТАЛАБЛАР

Абдусаломов Охунжон Абдусаломович
Термиз Давлат Университети магистранти
https://doi.org/10.5281/zenodo.7258522

Аннотация: Мазкур мақола технология дарсларида дастурлаштирилган таълим воситаларидан фойдаланишга қўйиладиган дидактик талаблар умумий ўрта таълим мактабларида технология фани машғулотлари жараёнида фойдаланишга бағишланган.

Калит сўзлар: компютер дастурлари, технологиялар, ўқув жараёни, дидактик талаблар.

Annotation: This article deals with the didactic requirements for the use of programmed teaching aids in technology lessons in the process of teaching technology in general secondary schools.

Keywords: computer programs, technology, learning process, didactic requirements.

Жамиятимизни, хусусан ҳалқ таълими тизимини информатизиция-лаштириш ва компьютерлаштириш жараёнлари қатор муаммоларни келтириб чиқармоқда. Бу муаммоларни ечилиши ва уларнинг муайян фаолияти соҳасида амалга ошириш бир қатор ўзига ҳос талаб ва шароитларга боғлиқ. Жумладан, таълим тизимига янги информацион технологияларни – компьютер ва унинг асосида ишлайдиган тизимларни жорий қилиш ҳамда уларни қўллаш усулларини ишлаб чиқишни тақазо этмоқда. Ўқув жараёнига янги информацион технологияларга эга бўлган ҳар хил дастурларнинг (компьютер тизимлари) киритилиши ўзига хос информацион муҳитни шакллантирмоқда. Амалиётда бу жараён тартибсиз ҳарактерга эга бўлиб, ўқув жараёнига салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Шунинг учун компьютер ва ахборот муҳитини, шахсни ривожлантиришда салбий ва ижобий таъсир этиш эффектларини аниқ тасаввур қилиш билан биргаликда умумий ўрта мактабларда ўқувчилар учун компьютерли ўқитиш дастурларини яратиш ва жорий этишда, уларни ҳисобга олиш лозим.

Шу муносабат билан ўқув жараёнига компьютер ва унинг асосида ишлайдиган тизимларни татбиқ қилиш, ўқитувчи ва ўқувчилар фаолиятининг психологик ва педагогик асосларини ишлаб чиқишни тақазо этмоқда.

Тадқиқотчи психологларнинг фикрича яхлит фаолиятнинг ўзи қуйидагиларни қамраб олади: эҳтиёж-сабаб-мақсадга эришиш шароити (мақсад ва шароитнинг бирлиги масаланинг таркибий қисми) ва улар билан муносабатда фаолият-ҳаракат-операция. Бу жараённи амалга оширишда фаолият тизимини яхлит тизим тарзида ўзгаришига ва трансформацияланишига алоҳида эътибор қаратиш лозим. Агар фаолият эҳтиёжни йўқотган ҳолда амалга ошса, амал эса мақсад ўзгариши билан операцияга айланади, у эса натижада бошқа фаолиятга айланади.

Қуйидаги ўзаро алмашишлар: фаолият-амал-операция ва эҳтиёж-мақсад-шароит доимо содир бўлади. Юқорида келтирилган босқичларни таълимни компьютерлаштириш ва компьютерли ўқитиш жараёнида ўзаро алмаштиришларни кузатиш мумкин. Бундай компьютерлаштириш икки йўналишда олиб борилиши мумкин: ўрганиш объекти ва ўқитиш дастури сифатида.

Биринчи ҳолатда билим ва кўникмаларни ўзлаштириш жараёнида компьютернинг имкониятларини англаш, компьютер саводхонлигини оширади.

Иккинчи ҳолатда, компьютерли ўқитишнинг самарадорлигини оширадиган ва жадаллаштиридиган кучли дастур ҳисобланади.

Компьютернинг ўзаги бўлган микроппроцессорларнинг пайдо бўлиши, мутахассисларнинг фикрича, инсоният тараққиёти тарихидаги учинчи информацион сакраш ҳисобланади. Бу сакраш ҳозирги кунларда информацияни нафақат қайд қилиш, балки инсон миясидан ташқарида интеллектуал таҳлил қилиши натижасида вужудга келди.

Компьютерлар интелектуал меҳнат қуролининг махсус машиналари моделлаштирувчи қурилмалари сифатида белгилар тизими, символларни монипуляциялаш, ахборотни қайта ишлашни автоматлаштириш йўллари билан меҳнатни енгиллаштириш ва такомиллаштиришга хизмат қилади.

Компьютерларни ақлий ривожлантириш ва интелектуал меҳнат дастурлар тизимида қўлланилиши, тарихий ораликда инсон имкониятларини кенгайтиришда сифат жиҳатидан янги ҳолатга ўтишини, ёзув ва китоб босиш усули пайдо бўлиши билангина таққослаш мумкин.

Ўқув жараёнини компьютерлаштириш сифат жиҳатидан катта ўзгаришларга олиб келади: У инсонда масалаларни "кўриш" кўникмаларини шакллантиришга, фаразни изоҳлаш ва (масалани ечиш жараёнида) уларни текширишга сезиларли даражада ёрдам бериши мумкин. Компьютер билан ишлаш инсонга масалаларни ечиш жараёнида бошқа одамлар томнидан яратилган тайёр амалларни "парча" сифатида киритишга имкон яратади. Қисқа қилиб айтганда, компьютер фикрлаш жараёни босқичларининг асосий амалларини қайта ишлашга ва уларни бир шаклдан бошқасига ўтишига

сезиларли ёрдам бериши мумкин. Умумий ўрта таълим мактабларида фанларининг ўқув жиҳозлари тизимида компьютернинг тутган ўрни ва имкониятларини ҳамда уларнинг ўзаро муносабатлари кўрсатилади ва ўқитувчи томонидан унинг қўлланилиши қуйидагича таъминланади:

✓ Унинг ифодали тасвирий дастурлари ўқув ахборотини акслантиришни такомиллаштиришга ва сифат жиҳатидан ўзгартиришга ёрдам беради;

✓ Ўқувчиларнинг ўқиш эхтиёжини кучайтиради ва қизиқишини сезиларли даражада оширади. Бу фақатгина компьютернинг ўзига хос хусусиятлари билан таъминлайди, айни пайтда ўқув ахборотини кузатишни бошқариш йўллари билан ва ўқувчининг тайёргарлик даражаси ҳамда таклиф этилаётган ўқув материалини мураккаблигиги боғлиқ ҳолда у томонидан қайта ишланади;

✓ Ҳар бир ўқувчини воқеийликни ўрганиш жараёнида фаол ва тўлиқ иштирок эттиради. Анъанавий ўқитиш тизими эса бундай имкониятни таъминлай олмайди. Бу эса унинг ҳар томонлама ривожланишида таълимнинг кейинги босқичларида салбий таъсир кўрсатади;

✓ Тескари алоқа асосида таклиф қилинаётган ўқув масалалари турларини ва шаклларининг хилма-хиллигини таъминлайди, ҳамда уларнинг ечимларини ифодалаб беради. Бунда ҳар хил ходиса, ҳолатларни ривожлантириш, моделлаштиришга қаратилган масалалар назарда тутилади, уларнинг оптималлигини назорат қилиш компьютерлар ёрдамида тескари алоқани ўрнатиш йўли билан амалга оширилади;

✓ Билиш жараёнини бошқариш асосида ўқувчиларнинг фаолиятини сифат жиҳатидан юқори савияда назорат қилишни таъминлайди. Анъанавий ўқитиш тизимининг асосий камчиликларидан бири шуки, ўқитувчи барча ўқувчиларни назорат қилиш имкониятининг йўқлиги ва зарурият бўлганда ўқиш фаолиятида ўқув материалини ўзлаштиришидаги динамик ўзгаришларни тўла равишда кузатишдан маҳрумдир;

✓ Ўқв жараёнида ўқувчи ўз фаолиятини тизимли равишда назорат қилиб боришини таъминлайди.

Шундай қилиб, компьютер ва унинг тизимларини техник қонунларни билиш асосида қўлланилганда инсонинг сезиш, қабул қилиш, хотира, тасаввур қилиш, фикрлаш жараёнлари орқали амалга ошириладиган қобилиятларни, ихчам қилиб айтганда, интелектини ривожлантириш дастурларини яратишда катта имкониятларни очиб беради. Барча дастурлар сингари компьютер ҳам ҳамма педагогик муаммоларни ҳал қила олмайди. Шунинг билан биргаликда унинг маълум салбий оқибатларини назарда тутиш лозим.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Омонов Ҳ.Т, Хўжаев Н.Х Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. Тошкент 2012 йил 190 бет

2. Ўзбекистон Республикаси Кадрлар тайёрлаш миллий дастури, 29 август, 1997 йил.

3. Аҳмедов А., Тайлоков Н.И., “Информатика”. Тошкент “Ўзбекистон” 2001 йил.

4. Мингбоев Н.С., Жуманов И.И., “Информатика”. Самарқанд:. СамДУ нашри. 2002 йил.

KOMPOZIT ARMATURALI EGILUVCHI BETON ELEMENTLARNING KUCHLANIB-DEFORMATSIYALANGANLIK HOLATINI EKSPERIMENTAL TADQIQ ETISH

Umarov Shodiljon Abdug‘ofurovich (PHD)
Solijonov Foziljon Sodiqjon o‘g‘li
M2-21 IOK magistrant
Erkaboyev Aliyorbek Avazjon o‘g‘li
M2-21 IOK magistrant
Farg‘ona politexnika institute
https://doi.org/10.5281/zenodo.7258549

Annotatsiyasi: Ushbu magistrlik dissertatsiyasida O‘zbekiston Respublikasida va chet ellarda hozirgi vaqtda barpo etilayotgan bino va inshootlarda beton konstruksiyalarini tiklashda keng qo‘llanilayotgan kompozit armaturali elementlarning ishini tadqiq etish bo‘yicha bajarilgan tadqiqot ishlari natijalarining tahlili bayon etilgan.

Tayanch so‘zlar: Kompozit armatura, beton, yuk, eguvchi moment, ko‘ndalang kuch, mustahkamlik, buzilish, deformatsiya.

EXPERIMENTAL STUDY OF THE STATE OF TENSION-DEFORMATION OF CONCRETE ELEMENTS BENDING WITH COMPOSITE FITTINGS

Annotation: This master's thesis presents an analysis of the results of research work on working with composite reinforcing elements, which are widely used in the reconstruction of concrete structures in buildings and structures currently under construction in the Republic of Uzbekistan and abroad.

Keywords: Composite reinforcement, concrete, load, bending moment, transverse strength, strength, deformation, deformation.

Kirish. Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida qurilish sohasida temirbeton konstruksiyalarda po‘lat armaturalar o‘rniga muqobil bo‘lgan kompozit materiallardan tayyorlangan armaturalarni qo‘llash bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish va ularning natijalarini qurilish amaliyotiga joriy etish ustida ilmiy ishlar olib borilmoqda va yildan-yilga ularning hajmi ortib bormoqda. Ularga misol qilib Germaniya, Rossiya, Xitoy, Yaponiya, AQSh, Kanada va boshqa mamlakatlarda amalga oshirilgan tadqiqotlar va barpo etilgan obyektlarni keltirishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiyotini rivojlantirishda, uning moddiy-texnik bazasini yuksaltirishda yangi konstruktiv yechimlarga ega bo‘lgan, iqtisodiy jihatdan

samarador bo‘lgan elementlarni nazariy va eksperimantal izlanishlar asosida amaliyotga tadbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Сувдан фойдаланишнинг юқори даражада самарали эмаслиги, кўплаб сув хўжалиги тизимларида аҳолини ичимлик суви билан таъминлаш сифатининг, айрим ҳолларда, паст даражадалиги, каттароқ аҳамиятга эга бўлган, фойдаланилаётган табиий сув объектларининг қониқарсиз аҳволдалиги, қатор белгиларига кўра, мамлакатимиз сув хўжалигининг замонавий тараққиёт даражасидан ортда қолаётганлиги кўрсатмоқда. Айрим ҳолларда экстенсив ривожланиш сари йўл тутилганлиги, сувдан фойдаланиш самарадорлиги масалаларига эҳтиёт бўлиб ёндашмаслик, муаммонинг экологик жиҳатларига етарли даражада эътибор бермаслик ва бошқа ҳолатлар, етарли даражада молиялаштирилмаслик билан биргаликда, шундай натижаларга олиб келди-ки, улар ҳозирги пайтда мамлакатимиз сув хўжалиги соҳасидаги вазиятда ўз аксини топмоқда ва хўжалик жаҳон даражасидан ортда қолганликни белгилаб бермоқда.

Фикримизча, ҳозирги пайтда Ўзбекистон сув хўжалиги мажмуасининг энг муҳим ва алоҳида эътибор талаб қилувчи муаммолари қаторига: а) фойдаланилаётган сув объектларининг кўпларида сув сифатининг қони-қарсиз даражадалиги; б) сув объектлари сифатини баҳолаш амалдаги тизими-нинг етарли даражада такомиллашмаганлиги, унинг бошқарув вазифаларига номувофиқлиги; в) хўжалик-ичимлик сув таъминоти тизимининг қониқарсиз аҳволдалиги; г) гидротехник иншоотлар – сув хўжалиги асосий ишлаб чиқа-риш фондлари техник ҳолатининг ёмонлашаётганлиги; д) тозаловчи иншоот-ларнинг паст самарадорлиги ёки уларнинг мавжуд эмаслиги; е) айрим ҳол-ларда сувдан хўжасизларча фойдаланилаётганлиги ва сув режимини экологик асосланган бошқаришнинг йўқлиги; ё) сув ресурслари ва сув хўжаликлари тизимларини бошқаришнинг етарли даражада самарали эмаслиги; ж) сув объ-ектлари мониторингини ривожлантириш бўйича ишлар ҳажмининг камлиги ва айрим ҳолларда, уларнинг мавжуд эмаслиги; з) экологик ва гидрологик мониторинг тизимлари ҳолатининг қониқарсизлиги; и) сув салбий таъси-ридан етарли даражада ҳимоя қилинмаслик; й) турли сабабларга кўра, сув объектлари ифлосланаётганлиги; к) сув хўжалигини бошқариш ахборот билан, илмий,

техник ва лойиҳавий таъминлашнинг етарли даражада эмаслиги ва бошқаларни киритиш мумкин.

Мамлакат ҳудудидаги 97 та ер конида 64 миллион куб метр умумий сув захиралари мавжуд бўлиб, «Дунёда бўлгани каби республикамизда ҳам сув ресурслари чекланган. Чучук сув умумий сув ресурсларининг 8 фоизини, ичимлик сувларининг эса 67 фоизини ташкил этади.Ўзбекистонда аҳоли ичимлик суви таъминоти учун 2019 йилда 161,4 минг куб метр/сутка, яъни 950 минг кишига етарли миқдордаги чучук сув захираси тасдиқланган. 2020 йилда бу кўрсаткич юқорилаб, 193 минг куб метр/сутка, яъни 1 млн 140 минг кишига етарли сув захиралари мавжуд. Республика ҳудудидаги 97 та ер конида 64 миллион куб метр, яъни сониясига 700 тонна ерости сувлари умумий захиралари мавжуд. Булар асосан Тошкент, Самарқанд, Сурхондарё, Наманган, Андижон ва Фарғона вилоятларида. Бухоро ва Навоий вилоятларида ўртача сув захиралари бўлса, Қорақалпоғистон ва Хоразмда чучук сувлар деярли мавжуд эмас (1-расм).



1-расм. **Республика ҳудудларини ичимлик суви билан таъминланиш кўрсаткичлари [7]**

Бугунги кунда ерости чучук сувлари республика бўйлаб тенг тарқалмагани энг катта муаммолардан биридир. Ичимлик суви танқислиги бўйича кўрсаткичлар яқин йилларда ошиб бориши тахмин қилинмоқда.

Ер шарининг учдан икки қисми сувликлардан иборат. Бунинг 97 фоизи шўр сув, 3 фоизи чучук сувдир. Шунинг ҳам 2 фоизи музликлардаги сувлар ҳисобланади.

Таҳлилларга кўра, 2025 йилга бориб ер юзидаги давлатларнинг ярмидан кўпида сув тақчиллиги юзага келади. 2050 йилга бориб эса дунё мамлакатларининг тўртдан уч қисмида сув тақчиллиги кузатилиши тахмин қилинмоқда.

Бундай шароитда кўпроқ тадқиқотлар ўтказиш, янги дастурларни ишлаб чиқиш талаб этилади. Шу боис, бугунги кунда «Ўзбекгидрогеология» ДУК ва

унинг 4 та дала экспедициялари томонидан гидрогеология йўналишидаги тадқиқотлар дастурлари ишлаб чиқилмоқда. Мамлакатнинг барча ҳудудларида ерости сувларини излаш ва баҳолаш бўйича геологик қидирув ишлари олиб борилмоқда»,

Сув ресурсларини бошқариш тизими талаб даражасида такомиллашма-ганлиги натижасида сув хўжаликлари мажмуалари муаммоларининг сабаблари ўз ичига: қонуний база етарли даражада ишлаб чиқилмаганлиги; меъёрий-ҳуқуқий база тўлиқ эмаслиги, айрим ҳолларда эса, сифати пастлиги; ташкилий тузилмалар ва бошқарув механизмлари замонавий талаблар ва тенденцияларга мос келмаётганлиги; фаолият кўрсатиш шарт-шароитлари бўлиши мумкин бўлган ўзгаришларга мослашаолмаётганлиги ва жавоб бераолмаётганлиги; турли миллий хўжалик тармоқлари ва иқтисодий фаолият субъектларида сувдан фойдаланишни мувофиқлаштириш йўлга қўйилмаганлиги; сув объектларидан фойдаланиш ва муҳофаза қилиш соҳаларида иқтисодий (жумладан, молиявий) механизм такомиллаш-маганлиги [8] ва ҳ.к.ларни қамраб олмоқда.

Бу борада мураккаблик шундаки, бир вақтнинг ўзида ягона тизимнинг ўзаро боғлиқ элементлари бўлишига қарамасдан, мавжуд муаммоларнинг барчаси турли функционал соҳаларга тўғри келади ва улар таъсир этиш соҳаси бўйича бир-биридан фарқ қилади. Бу эса, ўз навбатида, сувдан фойдаланиш соҳасида барқарор, оқилона ва адолатли ҳолатни ушлаб туришга йўналтирилган ягона, яхлит механизмнинг бўлиниб кетган элементларини жипслаштиришга қаратилган сув ресурсларини бошқариш амалдаги тизимининг навбатдаги камчиликларни бартараф этиш стратегиясини аниқлаб беради. Шунинг учун ҳам режалаштириш ва тартибга солувчи ҳаракатларни бир-бири билан боғлаш, кутилаётган мақсаднинг умумий – экологик ва барқарор ривожланиш талабларига мувофиқ келиш эканлигига қарамасдан, турли йўналишдалиги билан ажралиб турмоқда. Эколого-ижтимоий-иқтисодий муносабатларда киритилаётган янгилик ва амалга оширилиши лозим бўлган ўзгаришлар барча манфаатдор томонларнинг эҳтиёжлари билан гармоник тарзда боғланган бўлиши керак. Бунда бир иштирокчи томонидан бошқалар учун аҳамиятга эга бўлган жиҳатларни ҳисобга олмаслик, пировардида, унинг ўз манфаатлари аҳамиятга эга бўлган ҳолатнинг амалга ошмаслигига олиб келишини тўлиқ идрок этиш алоҳида аҳамиятга эга. Бу охир-оқибатда, хўжалик фаолияти умуман амаалга оширилмаслигига олиб келиши ҳам мумкин. Шу боисдан ҳам бундай қалтис вазиятдан чиқиб кетиш учун, фикримизча, қуйидаги вазифаларнинг ечилиши талаб қилинади:

1. Сув ресурсларидан фойдаланишни интенсивлаштириш, экстенсив сув истеъмолини давом эттиришдан воз кечиш ёки уни минималлаштириш.

Назаримизда, бу мақсадга эришишда ҳал қилувчи ролни бозор муносабатларининг ривожланиши ўйнайди. Бироқ бу жараён стихияли тарзда амалга оширилмаслиги керак. Чунки сув ресурсларининг ҳаддан зиёд ижтимоий ва экологик аҳамиятга эга эканлиги бозор муносабатларини ривожлантириш соҳасида ташланиши лозим бўлган ҳар бир қадам жиддий таҳлил ва тадқиқ қилинишини талаб этилади. Бир вақтнинг ўзида сув хўжалигини бошқаришдаги маъмурий-буйруқбозлик тизимидан, иложи борича, тезроқ воз кечмоқ лозим. Фикримизча, бунинг учун: а) сувни истеъмол қилганлик учун тўлов (ҳақ)ни меъёрлар бўйича ҳисоблашдан сув истеъмоли учун тўлов (ҳақ)ларни барча истеъмолчилар бўйича ҳақиқатда олинган (фойдаланилган) сув миқдори бўйича тўлашга ўтишни таъминлаш; б) сув истеъмолини таъминлашнинг барча харажатларини тўлиқ қоплаш (компенсация) даражасигача истеъмол қилинган сув учун тўловларни муттасил ошириб бориш дастурини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш; сув ресурсларининг сифатини барқарор такрор ишлаб чиқариш ва барча боғлиқ бўлган муҳитни қўллаб-қувватлашга мўлжалланган чораларни тўлиқ молиялаштириш имконини бериш даражасигача сувдан фойдаланишнинг барча турларига тўлов (ҳақ)ни ошириш; бунда сувдан фойдаланиш борасида рентани шакллантириш бўйича назарий ишланмалардан кенг фойдаланиш; в) сувдан фойдаланувчиларни сувни тежовчи технологияларни фаол жорий этишга сувдан фойдаланганлик учун тўловлар ва солиқ имтиёзлари, сув объектларига ҳар қандай салбий таъсир кўрсатганлик учун тўлов, тўловларни ҳисоблаш учун “зинали” функциялардан фойдаланиш, базавий ставкалар оралиқларини ҳисоб-китоб қилиш ва молиявий механизмнинг бошқа элементлари орқали рағбатлантириш (стимуллаштириш); г) сувдан фойдаланишнинг барча тур (кўриниш)лари ўртасида талабни таъминлашнинг рақобат шаклларини ривожлантириш ва ҳ.кларни амалга оширмоқ лозим.

2. Ишончли, хавфсиз ва барқарор ичимлик суви таъминотини таъмин-лаш [9]. Бунинг учун ичимлик суви таъминоти тизимида ер усти ва ер ости манбалардан биргаликда фойдаланиш зарур. Бунда, албатта, уларни тугамайдиган тарзда фойдаланилишига имкон берувчи экологик меъёрларга қатъий риоя этиш ва сувни тайёрлашнинг замонавий технологияларини қўллаш муҳим аҳамият касб этади. Шунингдек, бу вазифани ечишда сувни тежаб-тергаш ҳам муҳим роль ўйнайди.

3. Аҳоли ва хўжалик объектларини сувнинг зарарли таъсирларидан ва энг аввало, сув тошқинларидан ҳимоя қилиш тизимини ишлаб чиқиш. Бу фан сиғимли йўналиш сув тошқинларининг келиб чиқиш ва ривожланиш механизмларини тушунтирувчи усулларнинг такомиллаштирилишини, сув тошқинлари ва уларнинг оқибатларини башорат қилиш усулларини яхшилашни, гидрометеорологик кузатув (мониторинг) тизимларини, шунингдек, қатор сув

омборларини реконструкция қилиш бўйича капитал сиғимли тадбирларни, шаҳарлар, қишлоқлар ва хўжалик объектларини ҳимоя қилишни, айрим ҳолатларда эса хавфли ҳудудлардан аҳоли пунктларини чиқариш билан боғлиқ бўлган тадбирларни такомиллаштиришни талаб қилади. Турли мақсадларга мўлжалланган янги сув объектларини қуришга ҳудудлар ажратилаётганда бу ҳудудларнинг сув босиш, сув тошқинларидан кўрилиши мумкин бўлган зарарлар эҳтимоли, суғурталаш зарурлиги ва ҳ.к.лар ҳисобга олиниши керак.

4. Меъёрдан ортиқча таъсирда бўлган сув объектларда сув сифатини қайта тиклашга йўналтирилган чоралар тизимини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш. Оқим сувларини тозалаш тизимини яхшилаш бу муаммони тўлиқ ҳал эта олмайди. Шунинг учун ҳам бу борада сув йиғиладиган ҳудудларда тегишли тартибни жорий этиш, сувни муҳофаза қилиш ҳудудлари ва қирғоқ олди майдонларида хўжалик фаолияти ва табиатдан фойдаланишдаги чекланмаларга нисбатан ўрнатилган қонуний тартибларга қатъий риоя этиш, махсус реабилитация тадбирларини ўтказиш, гидромелиорация салбий таъсирларининг оқибатларига барҳам бериш ва ҳ.к.лар ҳам муҳим ҳисобланиши лозим. Бу фаолият экологик назорат ва сув хўжалигини бошқариш давлат органлари раҳбарлигида ҳамда уларнинг қатъий назорати остида амалга оширилиши керак. Бироқ у фақат маҳаллий ўз-ўзини бошқариш органлари, жамоатчилик ва бизнеснинг фаол иштирокидагина етарли даражада тўлиқ амалга ошириш мумкин.

5. Шунингдек, а) сувни тайёрлаш мажмуалари, хусусан, тезкор инженерлик қарорлари қабул қилишни қўллаб-қувватлаш тизимларини жорий қилиш, сувни зарарсизлантиришнинг илғор усулларидан фойдаланиш, замонавий кимёвий воситалар, сув узатиш тармоқларида сув сифати мониторингги тизимининг; б) ташлаб юбориладиган сувларнинг меъёрий сифат даражасини кафолатлаш учун саноат ва коммунал хўжалигида сув тозалаш тизимларининг; в) қишлоқ хўжалигидаги суғориш тизимларининг техник даражасини кескин ошириш зарур.

6. Гидрологик, эколого-иқтисодий ва иқтисодий-математик моделлар-дан фойдаланувчи ахборот-ҳисоблаш мажмуалари асосида сув ресурслари ва сув хўжаликларини (хусусан, ҳавза даражасида) бошқариш тизимларини ишлаб чиқиш ва жорий этиш. Бу йўналиш:

- асбоб-ускуналар ва дастгоҳларга;
- илмий тадқиқотларга;
- моделлар ва дастурий воситаларни ишлаб чиқишга;
- кадрлар тайёрлашга нисбатан кўпроқ бюджет харажатларини тақозо этади.

Кадрлар тайёрлашга бюджетдан кўпроқ харажатлар қилиниши зарурлигига етарли даражада эътибор бермаслик ва унинг муҳимлигини эътироф этмаслик дастлабки биринчи уч йўналиш бўйича харажатлар етарли даражада молиялаштирилмаганлиги сабабидир. Бу йўналишдаги объектив тенденция (иқлимий ўзгаришлар, энг ривожланган туманларда сув танқислигининг кучайиши, сув тизимларига юклама ўсишининг давом этаётганлиги ва ҳ.к.) шундан иборатки, сув ресурслари ва сув хўжалигини бошқариш вазифаларининг мураккаблиги янада ортиб бормоқда.

7. Сувдан фойдаланишнинг барча турлари, хусусан, ГЭСлар иш режи-мини бошқаришнинг самарадорлигини ошириш учун зарур бўлган гидро-башоратлар сифатини ошириш. Ўзбекистонда гидробашоратларнинг олдин-дан айтилувчанлиги ва аниқлиги замонавий даражадан бироз ортда қолмоқда. Хусусан, гидрометеорологик тармоқнинг ахборот базасини тубдан модернизация қилиш зарур. Бу ерда вазифа уни қайта тиклаш тарзида эмас, балки мониторингнинг замонавий технологиялари ва энг аввало, аэрокосмик технологиялар асосида уни оптималлаштиришни амалга ошириш зарур.

Юқорида қайд этилган вазифаларни ечиш, фикримизча, қуйидагиларга асосланмоғи лозим:

- сув ресурсларини бошқаришда энг асосий роль ҳавзавий ёндашувга тегишли бўлиши ва уни амалга оширишнинг самарали дастаги сифатида ҳавзавий битим қабул қилиниши керак;

- сув ресурсларини бошқаришни ахборот билан таъминлаш учун (мақсадни қўйиш, вазифаларни ва тартибга солиш усулларини аниқлаш, сув объектларидан фойдаланиш ва уларни муҳофаза қилиш, тегишли чораларнинг самарадорлигини баҳолаш) сув объектларининг аҳамияти ва ҳолатини эколого-социал-иқтисодий жиҳатдан характерлайдиган индикаторларни илмий асосланган ҳолда танлаш зарур;

- бу мақсадлар учун хўжалик объектлари – сувдан фойдаланувчилар, жойлаш-иш тизими, инфратузилмалар ва б.лар тўғрисида ишончли маълумотлар керак;

- сув ресурсларини бошқариш борасида сувдан фойдаланувчилар ва республика ҳамда маҳаллий давлат ҳокимияти ва ўз-ўзини бошқариш органлари функцияларининг оқилона чегараланганлиги қонуний тарзда аниқланган бўлиши лозим.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Ният улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. Тошкент: Ўзбекистон, 2019.

2. Муминов Ш.Х. Бозор механизмлари асосида сув хўжалиги тизимини молиялаштириш методологиясини такомиллаштириш. И.ф.д (DSc).. дис... автореферати. – Т.: 2020. 38 б.

3. Абдуғаниев А. Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигида ер-сув ресурсларидан самарали фойдаланишнинг айрим масалалари. -Т.:, 2001.

4.Абдуллаханов Р.А. Ўзбекистонда сув хўжалиги комплекси ва унинг муаммолари. –Т.: 2002. -144 б.

5.BurekP., Satoh Y., Fischer G., Kahil Mt., Scherzer A., Tramberend S., Nava Lf.,WadaY.,Etall.2016. Water Futures and Solution – Fast Track Initiative (Final Report). IIASA Working Paper. IIASA, Laxenburg, Austria: WP-16-006. P.88.

6.Рабочее резюме Обобщающий доклад 2018 г., посвященный Цели устойчивого развития 6 по вопросам водных ресурсов и санитарии.

7. https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/environment-2

8. Умрзоқов У.П., Абдураҳимов И.Л. Сув хўжалиги менежменти. 2 жилдлик. – Т.: «Iqtisod-moliya», 2008. – 608 ва 468 б.

9. Духовный В.А., Соколов В.И. Водохозяйственные проблемы стран бассейна Аральского моря: десять лет сотрудничества и перспективы // Мелиорация и водного хозяйства. 2002. №1. –С. 28-31.

БАРХАН ҚУМИ ВА ГИДРОСЛЮДА ТУПРОҒИНИНГ МОДДИЙ ТАРКИБИ ХАМДА УЛАРНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ

Умурзаков Эргаш Каримович
т.ф.н., доцент
Мамажонов Алишер Ўракович
т.ф.н., доцент
Мухаммаджонов Умиджон Мухтор ўғли
магистрант
Фарғона политехника институти
https://doi.org/10.5281/zenodo.7259073

Аннотация: Язъёвон бархан қумини ва Қамишбоши гилини, Фарғона нефтни қайта ишлаш заводи чиқиндисини физик – химик хусусиятларини комплекс тадқиқотлари натижаси уларни енгил тўлдирувчи (аглопорит) олишда ишлатилиши яхши натижа бериши аниқланди. Олинган аглопорит ҚМҚ 11991 – 83 “Аглопорит чақиқтоши” талабларига жавоб беради.

Калит сўзлар: бархан қуми, гидрослюда тупроғи ёки гили, нефт чиқиндиси, пластиклик, шихта, куйдирилган, аглопорит, мустахкамлик.

ВЕЩЕСТВЕННЫЙ СОСТАВ И СВОЙСТВА БАРХАННЫХ ПЕСКОВ И ГИДРОСЛЮДИСТОЙ ГЛИНА

Умурзаков Эргаш Каримович
кандидат технических наук, доцент
Мамажонов Алишер Уракович
кандидат технических наук, доцент
Мухаммаджонов Умиджон Мухтор угли
магистрант
Ферганский политехнический институт

Аннотация: Комплексными физико-химическими исследованиями Язьяванского барханного песка и глины Камышбашинского месторождении, нефтеотхода Ферганского нефтепереработывающего завода доказана возможность эффективного использования их для получения искусственного пористого заполнителя (аглопорита). Полученный аглопорит отвечает полностью требованию ГОСТ 11991 – 83 «аглопоритный щебень».

Ключевые слова : барханный песок, гидрослюдистаяглина, нефтеотход, пластичность, шихта, обжиг, аглопорит, прочность.

SAND DUNE, HYDROMICA CLAY AND DEFINING THE OPTIMUM STRUCTURE OF OIL REFINING WASTE MATERIAL ADDITIVES FOR INFANTRY FILLER GOT ON THE BASIS

Umurzakov Ergash Karimovich
The candidate of technological science, docent
Mamajonov Alisher Urakovich
The candidate of technological science, docent
Mukhammadjonov Umidjon
master of Ferghana Politechnical Institute

The Abstract: Complex physico-chemical studies dune sand Yaziyavansky and clays Kamyshbashinsky field, oil waste Fergana plant is proved possibility of the efficient use them for reception artificial porous aggregate (agloporits). Received agloporitsresponds completely demanding GUEST 11991 - 83 "aggloporitecrushed stone".

The Keywords :dune sand, hydromica clay, oil waste, plastic, charge, burning, special, agloporite, toughness.

Хом ашёнинг моддий таркибини ва хусусиятларини ўрганмасдан, юқори сифатли енгил тўлдирувчиларни олиш мумкин эмас[11-38]. Шу муносабат билан гил ва бархан қумининг кимёвий, минералогик, гранулометрик таркибини шунингдек нефт чиқиндиларнинг моддий таркибини аниқлаш мумкин.

Тадқиқотда ишлатиладиган материалларнинг физик,механик ва кимёвий хоссалари.

Тадқиқот объекти бўлиб қуйидагилар хизмат қилади: Фарғона вилояти Ёзёвон туманидаги (Марказий Фарғона) бархан қуми, шунингдек, пластификатор сифатида Ўзбекистон туманида жойлашган Қамишбоши кони гидрослюдали гили хом ашёси [9-12] ва ғовак ҳосил қилувчи қўшимчалар сифатида ишлатилган Фарғона нефтни қайта ишлаш заводи чиқиндилари.

1–жадвал

Гидрослюда тупроғи ва бархан қумининг кимёвий таркиби

Намуна №	Оксидлар, масса % да											
	SiO_2	Al_2O_3	Fe_2O_3	CaO	MgO	SO_3	CO_2	TiO_2	Na_2O	K_2O	Гигро сув	ППП

Камишбоши кони гили	1	51,48	14,78	5,60	6,08	3,40	1,16	3,97	0,67	2,32	3,55	1,87	11,60
	2	52,64	12,75	4,96	6,35	4,0	1,33	3,60	0,79	2,32	3,40	1,84	12,30
	3	55,06	14,34	5,60	4,72	4,70	0,19	4,12	0,79	1,35	3,84	1,38	9,38
	4	52,74	14,12	5,97	6,35	3,80	0,28	5,00	0,78	1,62	4,00	1,44	10,40
	5	52,74	14,31	5,16	6,77	4,20	0,30	5,44	0,8	1,48	3,83	1,28	10,96
	6	51,58	14,7	5,52	6,44	3,00	0,39	4,49	0,63	2,39	2,96	1,88	12,58
	7	54,17	18,72	6,70	5,87	3,78	0,60	8,07	-	-	-	-	8,13
	Ўрта ча завод намуна наси	51,28	16,21	5,42	5,75	2,85	0,56	4,40	0,66	2,70	3,01	1,70	5,70
Бархан қуми	1	52,35	7,38	3,72	16,3	1,26	0,46	-	-	3,04	-	-	14,74
	2	53,16	6,89	3,66	15,94	1,16	0,44	-	-	2,98	-	-	14,77
	3	51,71	7,21	3,78	17,99	1,33	0,47	-	-	3,10	-	-	14,41

Гил ва бархан қумларининг 8 та намунасининг кимёвий таҳлил қилиш натижалари 1-жадвалда келтирилган бўлиб, ундан SiO_2, Al_2O_3, CaO, MgO асосий оксидлари хом ашё таркиби деярли бир хил, қумдаги CaO ва MgO, миқдори 30% гача, яъни юқори карбонатли эканлигини кўриш мумкин.

2-жадвал

Ўрганилаётилган гилларнинг гранулометрик таркиби

Гил қазилмаси	**Гранулометрик таркиб**				
	Фракцияларнинг ммли элакаларда масса бўйича % даги хусусий қолдиғи:				
	Қумсимон		Чангсимон	Гилсимон	
	0,25	0,25-0,05	0,05-0,01	0,01-0,005	0,005
1	4,37	5,16	21,35	9,20	59,92

2	1,42	4,18	30,40	7,20	57,16
3	7,96	8,96	24,90	10,36	47,88
4	0,48	7,12	21,11	11,96	59,24
5	2,74	7,28	20,82	10,10	58,78
6	0,77	16,81	20,10	9,88	52,44
7	1,07	2,87	19,62	10,36	66,38
Ўртача завод намунаси	5,58	3,75	22,95	8,08	59,64

Гилнинг гранулометрик таркиби Рутковский ва пипетка усули билан аниқланди, унинг натижалари 2-жадвалда кўрсатилган бўлиб, унда гилни ўрганиш майда дисперсли гуруҳига тегишли эканлигини кўриш мумкин, бу ерда ўлчами 0.005 мм дан кам бўлган заррачалар миқдори 47.88 дан 66.38% гача бўлиб, кон бўйича ўртача намунада 59.64% гача.

Гил-тупроқнинг минералогик таркиби.

Шаффоф гил шлиф(бўлак)ларини микроскопик текшириш шуни кўрсатдики, улар асосан темирли иллитнинг гилли минерали-гидрослюдадан ва карбонат қўшимчаси билан бойитилган катта миқдордаги пластик материал-калцитдан иборат. Гилларнинг темир гидрооксидлари билан пигментацияси жуда сезиларли бўлиб, ундан жинслар тўқ қизил - малина рангига эга. Шлиф(бўлак)даги аралашмалар орасида кварц, парчаланган дала шпатлари, глауконит, калцит (баъзан доломит) ва биотит аниқланди. Гиллар мегапелит тузилишга ва оғир текстурага эга.

Иммерсия препаратларида ўрганилаётган 8 та гил намунасининг майда (алеврит 0.1 – 0.01 мм) фракцияси асосан кварц (70-80%) ва дала шпатлар(ортоплаз ва микроглин)дан – 15-25% иборат. Донадор кўринишида хлорит ва слюда (мусковит) барглари ва аниқмас парчаланган минераллар топилган. Енгил фракцияда кварц ва дала шпати билан бирга бўлимнинг юқори қисмида глауконитнинг кўплиги (тахминан 30%) кузатилади. Шу билан бирга глауконит қазилманинг пастки қатламларидан олинган гил намуналарининг енгил фракцияси таркибида топилмади[1-28].

Гил-тупроқларнинг керамик-технологик хусусиятлари.

Гил пластикликлиги - бу гилларнинг керамик хоссаларининг асосий кўрсаткичларидан бири деб ҳисобланиб, тадқиқотлар кўрсатишича Камишбоши конининг гиллари асосан мўтадил ва ўрта пластик хом ашёдир. Пластиклик

сони 10-19 оралиғида бўлади. Шу билан бирга, катламнинг чуқур зоналаридаги гилларнинг ўртача пластиклик кўрсаткичи 12 %, юзадагилари эса 14,5 % ни ташкил этади. Бу фарқ чуқур зоналарнинг гиллари таркибида пелитоаморфик доломит кўринишидаги карбонатлар борлиги билан изоҳланади, бу эса гил коллоид заррачаларини агрегат ҳолатга келтиради.

Хом ашёнинг керамик-технологик хусусиятлари гилли хом ашё учун ГОСТ 9169-72 га мувофиқ аниқланади.

21.9-22.5% намликдаги доначалар хом ва куйдирилган намуналарнинг физик-механик синовлари натижалари шуни кўрсатдики, гилларнинг ҳаводаги чўкувчанлиги 6.36-7.78% оралиғида бўлиб, 1000 ^{0}C да куйдирилгандагиси эса 7.76 дан 8.1% ни ташкил қилди. Чўкувчанлиги Камишбоши конининг гилларини ўрта пластик деб таснифлайди.

3-жадвал.

Гилнинг керамик-технологик хусусиятлари

Пластиклик кўрсаткичи	Қолипланиш намлиги, %	Чўкувчанлик, %		50x50x50 мм ли намуналарнинг механик мустаҳкамлиги, МПа		Илова
		Ҳаводаги	Оловдаги	Хом ашё	1000 ^{o}C да куйдирилган	
1	2	3	4	5	6	7
10 – 19	21,9 – 22,5	6,4 – 7,8	7,8 – 8,1	2,3 – 6,0	34,1 – 40,9	Гил кўпчимайди, балки пишади

Сиқилаётган хом намуналарнинг механик мустаҳкамлиги 2.3-6.0 Мпа оралиғида ўзгаради ва куйдирилганлари эса 34.1-40.9 МПа. Гил кўпчимайди, балки пишади.

Бархан қумларининг гранулометрик, кимёвий ва минералогик таркиби.

Йириклик модулини аниқлаш учун бархан қумларининг гранулометрик таркиби тешиклари 5, 2,5, 1,25, 0,63, 0,315, 0,14 мм катталикдаги стандарт элаклар тўплами орқали қуруқ қумни элаш орқали аниқланади[15-44]. Юқорида келтирилган элаклардан ўтган бархан қум намунасидан 1000 г тортиб олинади ва элаклар тўплами орқали кетма-кет элаб олинади. Ҳар бир элакдаги

қолдиқлар тарозида тортилиб, сўнгра қисман ва умумий қолдиқлар қумнинг 0.18-1.32 бўлган катталик модули ҳисоблаб чиқилди ва аниқланди.

Қумнинг донадор таркиби 4-жадвалда кўрсатилган қуйидаги фракциялардан иборат.

4-жадвал.

Қумнинг донадор таркиби

Назорат элакларнинг тешиги ўлчами, мм	Назорат элаклардаги умумий қолдиқ, масса бўйича % да
5	0
2,5	0
1,25	0
0,63	3,86
0,315	33,24
0,14	54,5
№ 14 элакдан ўтиш	7,76

Жадвал шуни кўрсатадики, бархан қумлари майда донали хисобланиб ва бетон учун тўлдирувчи сифатида ишлатилиши мумкин эмас, чунки у жуда кўп миқдорда цемент талаб қилади, бу эса ўз навбатида материал ёки цементни сарфини кўпайтиради.

Кимёвий таркибининг таҳлили (1-жадвал) шуни кўрсатадики, бархан қумлари таркибида 51-53% кремнозем борлиги кўрсатилган, лекин кремний оксиди SiO_2 нафақат эркин ҳолатдаги кристалл кварц шаклида, балки глинозем Al_3O_3 билан бирлашган ҳолатда хам мавжуд бўлади, яъни гил ҳосил қилувчи минераллар, калий ва натрий слюда таркибига киради. Қумларнинг кимёвий таркибида темир аралашмаси Fe_2O_3 мавжуд бўлиб, улар асосан қумнинг рангига таъсир этади. Ўрганилган қум барханларининг оҳак эритмасидан калций оксидининг шимилиши билан кимёвий фаоллигини аниқлаш хом ашё деярли инерт эканлигини ва силикат материаллар ишлаб чиқариш учун ишлатилиши мумкин эмаслигини кўрсатади.

Ўрганилаётган қум 600 г/см^2 гача бўлган ўзига хос сирт майдони билан майда доналидир. Қумнинг гранулометрик таҳлили маълумотлари шуни кўрсатдики, улар фракциялар ўлчами бўйича бир ҳил ва асосан 0,2-0,4 мм зарралар билан ифодаланади.

Бархан қумларининг петрографик тадқиқотлари.

Ўрганилган қумнинг петрографик таҳлили шуни кўрсатадики, кварц мономинераллар билан ифодаланган ёриқсимон, ўткир бурчакли ёки

зирапчасимон габитусли устивор минерал кўринишида бўлади. Бироқ, кварц гуруҳига кремноземнинг хар хил модификациялари бўлган темир гидроксидлари йўғрилган кўплаб ёриқлар билан кесилган жинс доналари – халцедон ва опал ҳам киритилади.

Тўқ рангли компонентларнинг мавжудлиги оғир фракциянинг мавжудлигини тушуниш имконини беради. Бу гуруҳ амфибол, пироксен, эпидот, биотит, мусковит ва хлоритларни бирлаштиради.

"Рудали минераллар" – барча хира минералларни ўз ичига олган доналар бўлиб, уларга лимонит, марганец оксидлари, магнетит, илменит ва бошқа рудали минераллар киради. Толали структурали бурма донали гипс учраб туради.

Бархан қумларининг плеохроизми дондаги минералларга ва уни қоплайдиган оксидларга қараб, очкулрангдан ифлос-жигарранг ёки жигарранг рангларгача ўзгариб туради[13-38]. Нефт чиқиндисининг 33.3% ни органик моддалар, яъни нефт махсулотлари (битум ва парафин), 66.7% ни бетонит туридаги гидрослюда гили ташкил қилади.

Адабиётлар:

1. Davlyatov S. M., Makhsudov B. A. Technologies for producing high-strength gypsum from gypsum-containing wastes of sulfur production-flotation tailings //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 10. – С. 724-728.
2. Ахмедов Ж. Д. Оптимизация преднапряженных перекрестных ферменных систем //Промислове будівництво та інженерні споруди. К.: ВАТ “Укрдніпроектстальконструкція ім. ВМ Шимановського. – 2010. – Т. 4.
3. Akhrarovich A. K., Muradovich D. S. Calculation of cylindrical shells of tower type, reinforced along the generatrix by circular panels //European science review. – 2016. – №. 3-4. – С. 283-286.
4. Muratovich D. S. Study of functioning of reservoirs in the form of cylindrical shells //European science review. – 2016. – №. 9-10.
5. Adilhodzhaev A. et al. The study of the interaction of adhesive with the substrate surface in a new composite material based on modified gypsum and treated rice straw //European Journal of Molecular & Clinical Medicine. – 2020. – Т. 7. – №. 2. – С. 683-689.
6. Акрамов Х. А., Давлятов Ш. М., Хазраткулов У. У. Методы расчета общей устойчивости цилиндрических оболочек, подкрепленных в продольном направлении цилиндрическими панелями //Молодой ученый. – 2016. – №. 7-2. – С. 29-34.

7. Egamberdiyev B. O. et al. A Practical Method For Calculating Cylindrical Shells //The American Journal of Engineering and Technology. – 2020. – Т. 2. – №. 09. – С. 149-158.

8. Davlyatov S. M., Kimsanov B. I. U. Prospects For Application Of Non-Metal Composite Valves As Working Without Stress In Compressed Elements //The American Journal of Interdisciplinary Innovations Research. – 2021. – Т. 3. – №. 09. – С. 16-23.

9. Mirzaraximov M. A. O., Davlyatov S. M. Application of filled liquid glass in the technology of obtaining a heat resistant material //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 8. – С. 4-7.

10. Мамажонов А. У., Юнусалиев Э. М., Давлятов Ш. М. Бетон с минеральным наполнителем-глиежем, электротермофосфорым шлаком и добавкой АЦФ-3М //Энерго-ресурсосберегающие технологии и оборудование в дорожной и строительной отраслях. – 2020. – С. 220-226.

11. Абдуллаев И. Н. и др. Совершенствование технологических методов при устройстве фундаментов глубокого заложения //Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 526-532.

12. Гончарова Н. И., Абобакирова З. А. Битуминированный бетон для подземных конструкций зданий //international conferences on learning and teaching. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 122-125.

13. Абобакирова З. А., Бобофозилов О. Исползование шлаковых вяжущих в конструкционных солестойких бетонах //international conferences on learning and teaching. – 2022. – Т. 1. – №. 6.

14. Абобакирова З. А., кизи Мирзаева З. А. Сейсмик ҳудудларда биноларни эксплуатация қилишнинг ўзига хос хусусиятлари //international conferences on learning and teaching. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 147-151.

15. Абобакирова З. А., угли Содиков С. С. Свойства цементного камня оптимального состава с добавками в условиях сухого жаркого климата //international conferences on learning and teaching. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 81-85.

16. Goncharova N. I., Abobakirova Z. A., Mukhamedzanov A. R. Capillary permeability of concrete in salt media in dry hot climate //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2020. – Т. 2281. – №. 1. – С. 020028.

17. Гончарова Н. И. и др. Применение Шлаковых Вяжущих В Конструкционных Солестойких Бетонах //Таълим ва Ривожланиш Таҳлили онлайн илмий журнали. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 32-35.

18. Ivanovna G. N., Asrorovna A. Z., Ravilovich M. A. The Choice of Configuration of Buildings When Designing in Seismic Areas //central asian journal of arts and design. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 32-39.

19. Гончарова Н. И., Абобакирова З. А., Мухаммедзиянов А. Р. Сейсмостойкость Малоэтажных Зданий Из Низкопрочных Материалов //central asian journal of theoretical & applied sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 209-217.

20. Умаров Ш. А., Мирзабабаева С. М., Абобакирова З. А. Бетон Тўсинларда Шиша Толали Арматураларни Қўллаш Орқали Мустаҳкамлик Ва Бузилиш Ҳолатлари Аниқлаш //Таълим ва Ривожланиш Таҳлили онлайн илмий журнали. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 56-59.

21. Мамажонов А. У., Юнусалиев Э. М., Абобакирова З. А. Об опыте применения добавки ацф-3м при производстве сборных железобетонных изделий //Энерго-ресурсосберегающие технологии и оборудование в дорожной и строительной отраслях. – 2020. – С. 216-220.

22. Мирзаахмедова У. А. и др. Надежности И Долговечности Энергоэффективные Строительные Конструкций //Таълим ва Ривожланиш Таҳлили онлайн илмий журнали. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 48-51.

23. Кодиров, Г. М., Набиев, М. Н., & Умаров, Ш. А. (2021). Микроклимат В Помещениях Общественных Зданиях. Таълим ва Ривожланиш Таҳлили онлайн илмий журнали, 1(6), 36-39.

24. Umarov, S. A. (2021). Development of deformations in the reinforcement of beams with composite reinforcement. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 511-517.

25. Akhrarovich, A. X., Mamajonovich, M. Y., & Abdugofurovich, U. S. (2021). Development Of Deformations In The Reinforcement Of Beams With Composite Reinforcement. The American Journal Of Applied Sciences, 3(05), 196-202.

26. Гончарова Н. И., Абобакирова З. А., Мухамедзянов А. Р. Энергосбережение в технологии ограждающих конструкций //Энерго-ресурсосберегающие технологии и оборудование в дорожной и строительной отраслях. – 2020. – С. 107-112.

27. Гончарова Н. И. и др. Разработка солестойкого бетона для конструкций с большим модулем открытой поверхности //Молодой ученый. – 2016. – №. 7-2. – С. 53-57.

28. Abobakirova Z. A. Reasonable design of cement compositionfor refactory concrete //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – Т. 10. – №. 9. – С. 556-563.

29. Goncharova N. I., Abobakirova Z. A. Reception mixed knitting with microadditive and gelpolimer the additive //Scientific-technical journal. – 2021. – Т. 4. – №. 2. – С. 87-91.

30. Goncharova N. I., Abobakirova Z. A., Kimsanov Z. Technological Features of Magnetic Activation of Cement Paste" Advanced Research in Science //Engineering and Technology. – 2019. – Т. 6. – №. 5. – С. 12.

31. Goncharova N. I., Abobakirova Z. A., Mukhamedzanov A. R. Capillary permeability of concrete in salt media in dry hot climate //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2020. – Т. 2281. – №. 1. – С. 020028.

32. Asrorovna A. Z. Effects Of A Dry Hot Climate And Salt Aggression On The Permeability Of Concrete //The American Journal of Engineering and Technology. – 2021. – Т. 3. – №. 06. – С. 6-10.

33. Abobakirova Z. A. Regulation Of The Resistance Of Cement Concrete With Polymer Additive And Activated Liquid Medium //The American Journal of Applied sciences. – 2021. – Т. 3. – №. 04. – С. 172-177.

34. Мирзажонович Қ. Ғ., Мирзабабаева С. М. Биноларни ўровчи конструкцияларини тузлар таъсиридаги сорбцион хусусиятини яхшилаш //research and education. – 2022. – С. 86.

35. Мирзабабаева С. М., Мирзажонович Қ. Ғ. Бетон ва темирбетон конструкциялар бузилишининг турлари ва уларнинг олдини олиш //research and education. – 2022. – С. 91.

36. Abdukhalimjohnovna M. U. Failure Mechanism Of Bending Reinforced Concrete Elements Under The Action Of Transverse Forces //The American Journal of Applied sciences. – 2020. – Т. 2. – №. 12. – С. 36-43.

37. Abdukhalimjohnovna M. U. Technology Of Elimination Damage And Deformation In Construction Structures //The American Journal of Applied sciences. – 2021. – Т. 3. – №. 05. – С. 224-228.

38. Akhrarovich A. X., Mamajonovich M. Y., Abdugofurovich U. S. Development Of Deformations In The Reinforcement Of Beams With Composite Reinforcement //The American Journal of Applied sciences. – 2021. – Т. 3. – №. 5. – С. 196-202

39. Акрамов, Х. А. "Прочность, жесткость и трещиностойкость изгибаемых железобетонных трехслойных конструкцій." PhD diss., ступеня д-ра. техн. наук/ХА Акрамов.–Ташкент: ТАСИ, 2002.–38 с, 2002.

40. Akhrarovich A. X., Mamajonovich M. Y., Abdugofurovich U. S. Development Of Deformations In The Reinforcement Of Beams With Composite Reinforcement //The American Journal of Applied sciences. – 2021. – Т. 3. – №. 5. – С. 196-202.

41.Egamberdiyev, B. O. "A Practical Method For Calculating Cylindrical Shells." The American Journal of Engineering and Technology 2.09 (2020): 149-158.

42.Egamberdiyev B. O. et al. A Practical Method For Calculating Cylindrical Shells //The American Journal of Engineering and Technology. – 2020. – Т. 2. – №.

09. – С. 149-158.

43. Makhkamov Y. M., Mirzababaeva S. M. Rigidity of bent reinforced concrete elements under the action of shear forces and high temperatures //Scientific-technical journal. – 2021. – Т. 4. – №. 3. – С. 93-97.

44.Махкамов Й. М., Мирзабабаева С. М. Прогибы изгибаемых железобетонных элементов при действии поперечных сил и технологических температур //Проблемы современной науки и образования. – 2019. – №. 12-2 (145).

MAKTABLARDA EMAS, SINFLARDA AJRALAMIZ

Qurbonova Nozima
Chirchiq davlat pedagogika institutiGumanitar fanlar fakulteti
Milliy g‘oya ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7259080

Annotatsiya: Yosh avlodning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi uchun faqat ta’lim olishning o‘zi kifoya qiladimi? Ta’lim jarayonlariga bolalarning psixologik holatini hisobga olgan holda, yanada yaxshilash maqsadida o‘zgartirishlar kiritish vaqti kelmadimikan? Maqolada umumiy o‘rta ta’lim tizimida qiz va o‘g‘il bolalarni qisqa muddatga alohida o‘qitish masalasi ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim, instikt, yetti yosh inqirozi, ijtimoiy hayotda ijtimoiylashuv, individuallik.

Hozirgi kunda ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar boshqa sohalar kabi dolzarb ahamiyatga ega. Yoshlarning bilim olishi, uni hayotda samarali qo‘llay bilishi, shaxs sifatida jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishi uchun qilinayotgan ishlar bugungi islohotlar maydonining markazida turibdi. Alohida o‘qitish metodikasi ko‘pchilikka g‘ayritabiiy va ayrimlar uchun “qo‘rqinchli” eshitilishi mumkin. Chunki bu masala tarixda yaqqol namoyon bo‘lgan. Xo‘sh, biz bilan tarix mazkur masalaga qanday qaraydi?

Aynan O‘rta Osiyoda arablar istilosidan keyin, ya’ni IX-X asrlar va undan keyingi davrda Islom dini keng tarqalgan. Ta’lim ham o‘z o‘zidan shariat qoidalariga asoslangan. O‘g‘il bolalar masjid, madrasalar, qorixonalar qoshidagi yoki badavlat kishilarning maktab yoshidagi qizlari uchun ularning uylarida tashkil etilgan maktablarda o‘qitilgan. Ularning ijtimoiy hayotda munosabatga kirishishlari yuzasidan ham qat’iy cheklovlar mavjud bo‘lgan. Bir so‘z bilan aytganda diniy va axloqiy jihatdan maktablarda alohida o‘qitish tizimi o‘z o‘zidan yuzaga kelgan.

Ana endi XXI asr. Axborot texnologiyalar rivoj topgan jamiyatni har bir sohasining axborotlashuvi keng qamrovda yo‘lga qo‘yilgan davrda, demokratik dunyoviy davlatda qisqa muddatga alohida o‘qitish tizimini joriy qilishdan maqsad nima? - degan savol paydo bo‘lishi o‘rinli. Ko‘rib turganimizdek tarixga murojaat qilib bu tizimning diniy va faqatgina axloqiy jihatdan ajratish emasligi haqida bilib olish mumkin.

Masalaga psixologik jihatdan yondashamiz. Mamlakatimizda bolalar asosan maktabga yetti yoshdan qabul qilinadilar. Ayni shu yoshda barcha bolalarda yetti yosh inqirozi davri boshlanadi. Psixodiognostik olim L.I.Bojovich fikriga qaraganda yetti yosh inqirozi bu bolaning ijtimoiy “Men”i shakllanishi davridir. Bu paytda ular

fanlarni o‘zlashtirishni boshlaydilar. O‘zlashtirish jarayonida qiz va o‘g‘il bolalarda farqli kechadi.

AQSh mutaxassislarining fikricha aniq fanlar masalan, matematika darsida o‘g‘il bolalar raqamlar, qizlar esa hayotiy misollar orqali yechim topadilar. Agar to‘g‘ri tashkil etilsa, o‘g‘il bolalarda ham o‘zgarishlar yuz beradi. Jumladan ayni boshlang‘ich maktab davrida qiz bolalarning o‘g‘il bolalardan yoki aksincha o‘g‘il bolalar qizlardan uyalish holatlari uchraydi. Bu esa ularning ta’lim olish jarayonlariga ta’sir holatlari ham uchraydi. Alohida o‘qitish tizimini joriy qilishdan maqsad ham shu aslida – ta’limning sifatini yaxshilash.

Tabiyki savol paydo bo‘ladi. Kamida uch yil muddat tugab, aralash holga o‘tilganda, qiz va o‘g‘il bolalarda munosabatga kirisha olmaslik holatlari yuzaga kelsa-chi? Bu vaziyatda maqolaning mavzusiga e’tibor qaratish lozim. O‘quvchilar bir maktabda, lekin alohida sinfxonalarda ta’lim oladilar. Ular o‘rtasida belgilangan tartibda vaqti-vaqti bilan raqobatni kuchaytirish maqsadida bellashuvlar o‘tkazilib boriladi. Lozim topilsa, turli tadbirlarga, teatr, ko‘ngilochar bog‘larga sayohatlar tashkil etiladi. Bu esa tashkil etiladigan kadrlarning salohiyatiga bog‘liq.

Shu jumladan umumiy o‘rta ta’limda bu tizimni joriy qilish o‘z navbatida oliy ta’limda yangilanishga olib keladi. Chunki alohida o‘qitish metodikasi uchun ham kadrlar masalasi ham o‘ta muhim. Ular aralash turdagi ta’limdan farqli bo‘lishi kerak. Chunonchi ular qiz va yigitlarni kamida uch yil davomida nafaqat fanlarni aralash turdagi sinflardan yaxshiroq o‘zlashtirishiga, balki odob axloq, tabiiy gigiyenik qoidalari va boshqa sohalarga umumiy emas, individuallik asosida tayyorlashga ma’sul bo‘ladilar. Bu esa oliy ta’limda yangi yo‘nalishlar ish o‘rinlari ko‘payishiga olib keladi.

Bu borada jamoatchilik fikri ham albatta muhim. Tangani ikki tomoni bo‘lganidek, mazkur tizim bolalarning ijtimoiylashuviga halaqit berishi to‘g‘risida e’tirozlar ham kam emas. Yana ham bu tizimni yoqlaganlarning ko‘pchiliklari boshlang‘ich maktabda aralash, yuqori sinflarda esa aksincha alohida tizimni joriy qilish bo‘yicha fikr bildirishgan.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, bu ya’ni ma’lum muddatga qiz va yigitlarni alohida o‘qitish - gender, yoki diniy jihatdan emas, balki ularning boshlang‘ich davrda salohiyatli, yuksak darajada tarbiyali, ilmda ilg‘or talabchan qilib yuzaga chiqarishdir. Yana shundayki, xorijiy tajribalarni tahlil qilish orqali alohida o‘qitish ta’lim tizimini sifatini yaxshilash, o‘quv dasturlarini takomillashtirish, va zamonaviy texnologiyalarni ta’limda joriy qilish yaqin kelajakda 3-renesansni qurishda muhim poydevor bo‘lib xizmat qilsa ajab emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Musharraf Salaxutdinova Rivojlanish va yosh psixologiyasi. - S., 2020.
2. https://www.amerikaovozi.com 2008.03.23, Kun.uz 2018.05.10

MATEMATIKA O‘QITISHNING ZAMONAVIY SHAKLLARI VA USULLARI BO‘YICHA METODIK TAVSIYALAR
METHODOLOGICAL RECOMMENDATIONS ON MODERN FORMS AND METHODS OF TEACHING MATHEMATICS
МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО СОВРЕМЕННЫМ ФОРМАМ И МЕТОДАМ ОБУЧЕНИЯ МАТЕМАТИКЕ

Azizov Ma’sudjon
Qashqadaryo viloyati Kitob tumani 35-umumta’lim maktabi
matematika fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7259088

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy matematika darsi haqida o‘qituvchilarning fikrlarini yangilash, uni qurish tamoyillari haqida professional muloqot uchun sharoit yaratish boyicha tavsiyalar beriladi. Zamonaviy matematika darsining maqsadi - yangi, vazifalarni mustaqil hal etishga qodir bo‘lgan umumiy madaniy va shaxsiy rivojlanishning yuqori darajasiga ega bo‘lgan ko‘p qirrali shaxsni shakllantirishdir.

Kalit so‘zlar: metodik tavsiyalar, intellektual rivojlanish, guruh bo‘lib ishlash, aqliy hujum, «Davom Eting» o‘yini, “Xazina uchun ov”, “Qor xaritasi”.

Annotation: This article provides recommendations for updating teachers' ideas about the modern mathematics lesson, creating conditions for professional communication about the principles of its construction. The purpose of a modern mathematics lesson is to form a versatile personality with a high level of general cultural and personal development, capable of independently solving new tasks.

Key words: methodical recommendations, intellectual development, work as a group, brain storming, game "Go Ahead", "Hunting for treasure", "Snow map"

Аннотация: В данной статье даются рекомендации по обновлению представлений педагогов о современном уроке математики, созданию условий для профессионального общения о принципах его построения. Целью современного урока математики является формирование разносторонней личности с высоким уровнем общекультурного и личностного развития, способной самостоятельно решать новые, поставленные задачи.

Ключевые слова: методические рекомендации, интеллектуальное развитие, работа в группе, мозговой штурм, игра "Идем дальше“,” Охота за сокровищами“,”Снежная карта"

O‘rta maktabning yuqori sinflarida matematika fanini o‘qitish, menimcha, o‘quvchilarning intellektual rivojlanishi va o‘z-o‘zini rivojlantirishga, matematik

faoliyatga xos bo‘lgan mantiqiy va majoziy fikrlashni rivojlantirishga va zamonaviy jamiyatda moslashgan va ishonchli hayot uchun zarur bo‘lgan shaxsga qaratilishi kerak. O‘quvchilar tegishli fanlarni o‘rganish uchun zarur bo‘lgan aniq matematik bilimlarni, amaliy faoliyat uchun, kelajakda professional faoliyatda foydalanish, o‘qishlarini oliy o‘quv yurtlarida muvaffaqiyatli davom ettirish, uzluksiz ta'lim va o‘z-o‘zini o‘qitish (axborot manbalari bilan mustaqil ishlash) uchun yetarli bilim va ko‘nikmalar olishi lozim. Umuman olganda, muloqot va malakali, o‘zgaruvchan hayot sharoitlariga, zamonaviylikning talablariga moslasha oladigan bitiruvchini tayyorlashdir.

Zamonaviy matematika darsining asosiy vazifalari quyidagilar deb hisblayman:

- shaxsiy rivojlanishi - shaxsiy, axloqiy, hissiy, estetik va jismoniy tomondan yo‘naltirish va fazilatlarini rivojlantirish;

- intellektual rivojlanish - shaxsning intellektual fazilatlarini rivojlantirish, bilim metodologiyasini, ta'lim berish strategiyasi va usullarini o‘zlashtirish, o‘z-o‘zini tarbiyalash;

- kommunikativ rivojlanish - muloqotni erkin amalga oshirish qobiliyati va tayyorligini shakllantirish, og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan muloqotning zamonaviy vositalarini o‘zlashtirish.

Zamonaviy matematika darsining yangiligi haqida pedagogik va ilmiy faoliyatimda kelib chiqib, quyidagi fikrlar va tavsiyalarim bilan o‘rtoqlashtirmoqchiman. Birinchi navbatda, bolaning atrof – muhitni bilish uchun motivatsiyasini kuchaytirish, unga maktab darslarini hayotdan chalg‘itadigan bilimlarni olish emas, aksincha, hayot uchun zarur bo‘lgan tayyorgarlik, uni tanib olish, foydali ma'lumot topish va uni haqiqiy hayotda qo‘llash qobiliyatlari ekanligini ko‘rsatish kerak.

Zamonaviy matematika darslarida o‘quv faoliyatini tashkil etish shakllarining ushbu metodlariga amal qilish ijobiy natijalarga olib keladi deb o‘ylayman:

- darsda o‘quvchilarni guruh bo‘lib ishlashi (bu shakl o‘quvchilar tomonidan o‘quv topshiriqlarini alohida, mustaqil ravishda bajarish bilan tavsiflanadi, natijada natijalarni nazorat qiladi);

- o‘quvchilarning jamoa bo‘lib dars qilishi (bu talabalarning faoliyatini tashkil etishning eng qiyin shakli, barcha o‘quvchilar faol va bir – birlarini o‘qitishda, jamoaviy shaklning odatiy namunasi-o‘quvchilarning bir-birining o‘rnini bosuvchi juftlikdagi ishi);

- o‘quvchilarning juftlik bo‘lib dars qilishi (bu o‘qituvchining (yoki tengdoshning) bir-birining ishi).

Matematika darslarida o‘quvchilarni guruh shaklida dars qilishlari ko‘plab afzalliklarga va kamchiliklarga ega. Darsni o‘tkazishda «aerobatika» va amaliyotda yangi usullarning mukammal tadbiri-o‘qituvchi faqat bolalarni yo‘naltiradigan dars

davomida tavsiyalar beradigan dars. Men guruh ishi texnologiyasi darslarida foydalanish tajribasini baham ko‘rmoqchiman. Ushbu texnologiya nafaqat o‘quv materiallarini muvaffaqiyatli o‘zlashtiribgina qolmay, balki muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi, bolalarga sinfdoshlariga o‘rgatish va ularni tinglash, jamoada ishlash imkonini beradi. Ushbu texnologiyadan foydalanib, o‘qituvchi asosiy maqsadga erishadi. Guruh ishining maqsadi: har bir talabaning o‘quv materiallarini o‘zlashtirish jarayoniga faol kiritilishi.

Darslarda o‘quvchilarning guruh bo‘lib ishlashining asosiy vazifalari:

- Kognitiv faoliyatni faollashtirish.

- Mustaqil ta'lim faoliyati ko‘nikmalarini rivojlantirish: yetakchi va oraliq vazifalarni aniqlash, maqbul yo‘lni tanlash, tanlov natijalarini taqdim etish qobiliyati, uni ob'ektiv baholash.

- Muvaffaqiyatli muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish (bir-birini tinglash va eshitish, muloqot qilish, tushunish uchun savollar berish va h.k.).

Maqolaning asosiy mazmuniy qismida maktablarda matematika fanidan dars beradigan hamkasblarim va sohaga endi kirib kelayotgan yosh o‘qituvchilarga bir necha metodik va amaliy dars namumalari va tavsiyalar bermoqchiman. Matematika darslarida asosan o‘quvchilarni individual tarzda ishlashga o‘rgatamiz, men guruh bo‘lib ishlash texnikalarini qo‘llashni maslahat beraman. Matematika darslarida o‘quvchilarni guruh bo;lib ishlashi metodik usullari bo‘yicha quyidagi fikrlarni aytishim mumkin.

Maktab darslarida ishlatilishi mumkin bo‘lgan bir necha turdagi guruh ishlarini turlarini tavsiya qilaman:

* Juftlikda ishlash.
* Aqliy hujum.
* «Davom Eting» o‘yini.
* Xazina uchun ov.
* Qor xaritasi.
* Mozaik guruhi yoki boshqotirmalar.
* «Zigzag» usuli.

Endi bu metodlar bilan birma bir tanishtirib chiqaman va ishlash usullari haqida ham to‘xtalaman.

Aqliy hujum usuli matematika darslarida amaliy foydasi tegadi.

* G‘oyalarni ishlab chiqarish uchun ishlatiladi.
* Aniq qoidalarga rioya qilinadi •
* Guruh ichidagi rollar (yetakchi, kotib, vaqt hisobchisi) taqsimlanadi.
* Guruh ichida jamoaviy qaror qabul qilingandan so‘ng, turli guruhlardan xabarlar tayyorlanadi.

Keyingi metodik usul «Davom Eting» o‘yinidir.

«Zanjir bo‘yicha» guruhining turli xil vazifalarini bajarishga asoslangan.

Siz turli mavzularda darslarda foydalanishingiz mumkin (masalan, kompozitsiyani yozishda, tabiat fani darsida, hayvon haqida hikoya qilishda, tarixiy voqealarni ko‘rib chiqishda tarixda).

Keyingisi esa “Xazina uchun ov” usuli hisoblanib, bu usul o‘quvchilarni qiyin va zerikarli tuyulgan masalarni oson va qiziqarli tarzda yetkazib berish uchun qulaydir. O‘qituvchi savollar beradi. Savollar faktlarni bilish va tushunish yoki tushunishni talab qilishi mumkin. O‘quvchilar internet resurslari, qo‘shimcha adabiyotlar, darslik yordamida savollarga javob berishlari kerak.

Yana bir metodik usul bu “Qor kartasi” boladi. Shaxsiy topshiriqni hal qilish bilan boshlangan guruhda ishlash. Barcha talabalar shu kabi vazifalarni oladilar va mustaqil ravishda bajaradilar. Shundan keyin juftliklar bilan ishlash kerak. Ikki juftlik birlashadilar va ish to‘rt kishilik guruhda davom etadi, bu yerda yechimlar yana muhokama qilinadi va ularning eng yaxshisi tanlanadi. Ish oxirida barcha o‘quvchilar bir guruhga kiradilar. Ushbu oxirgi bosqichda yechimlar muhokama qilinmaydi, guruhlar o‘z ishlari haqida hisobot beradi.

Boshqotirmalar ham matematika darslarida qo‘llanganda ijobiy natijalarga olib keladi. O‘qituvchi mavzuni bir necha qismga ajratadi, shunda har bir guruh mavzuning bir qismini oladi. Bundan tashqari, barcha guruhlar kerakli manbalar yoki o‘quv materiallarining o‘zlari ro‘yxatini oladilar, ular orqali mavzuning tavsiya etilgan qismining asoslarini o‘rganadilar. Materialni o‘rganganidan yoki topshiriqni bajarganidan so‘ng, guruhlar har bir sobiq guruhdan har bir yangi guruhga 1 kishi kirishi uchun qayta tuziladi. Yangi guruhning har bir a'zosi o‘zining yangi hamkasblariga avvalgi guruh tarkibida o‘rgangan va so‘ralgan savollarga javob bergan mavzuning bir qismini tushuntiradi. Natijada, guruh ishi xulosasi chiqaradi.

«Zigzag» usuli haqida ham to‘xtalib o‘tsam. O‘quvchilar 4-5 kishilik guruhlarga bo‘linadigan o‘quv materiallari ustida ishlash uchun tashkil etiladi. Keyin bir xil savolni o‘rganadigan, ammo turli guruhlardagi bolalar ushbu masala bo‘yicha mutaxassislar sifatida ma'lumot almashadilar. Bunga «ekspertlar uchrashuvi» deyiladi. Keyin ular o‘z guruhlariga qaytib, guruhning boshqa a'zolari o‘zlari o‘rgangan yangi narsalarni o‘rgatishadi. Ular, o‘z navbatida, topshiriqning bir qismi haqida xabar berishadi.

Matematika darslarida guruhlar bilan ishlaydigan o‘qituvchi dars davomida o;quvchilar ishini nazorat qilishi va boshqarib turishi kerak bo‘ladi. O‘qituvchi:

- nazorat qilishi;
- guruh ishini tashkil qilishi;
- o‘quvchilar ishini baholashi;
- guruh ishida ishtirok etishi;
- ishtirokchilarga turli xil yechimlarni taklif qilishi;

- axborot manbai bo‘lib xizmat qilishi maqsadga muvofiqdir.

Matematika o‘qituvchilariga darslarda guruh ishini tashkil qilish bo‘yicha bir necha maslahatlar:

- birgalikda ishlashni istamagan bolalarning umumiy ishiga majbur qilish mumkin emas;

- bir joyda ishlashni istagan talabaga boshqa joyga o‘tirishga ruxsat berilishi kerak;

- guruh ishi 15-20 daqiqadan oshmasligi kerak;

- sinfda mutlaq sukunatni talab qilish mumkin emas chunki bolalar birgalikda ishlashning «mahsuloti» ni taqdim etishdan oldin fikr almashishlari kerak. Sinf xonasida ruxsat etilgan shovqin darajasini bo‘lishi kerak;

Maqolamda bildirilgan metodik tavsiyalar bo‘yicha qisqacha shunday xulosa qilishim mumkin. Guruh ishlarida tezkor natijalarni kutish mumkin emas, hamma metodik tavsiyalar vaqt talab etadi. Muloqotning eng oddiy shakllari ishlab chiqilguncha yanada murakkab ishlarga o‘tmang. Vaqt kerak, amaliyot, xatolarni tahlil qilish uchun kerak bo‘ladi. Bu o‘qituvchidan sabr-toqat va mashaqqatli ishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alixonov S. “Matematika o‘qitish metodikasi” Qayta ishlangan II nashri. Toshkent. «O‘qituvchi» 1997.
2. Alixonov S. «Matematika o‘qitish metodikasi». Toshkent. «O‘qituvchi» 1992.
3. Jumayev M.E. Matematika o‘qitish mctodikasidan praktikum. OTM uchun darslik. Toshkent., «O‘qituvchi» 2004
4. Jumayev M.E. va boshqalar. Matematika. OTMning Pedagogika psixologiya fakulteti talabalri uchun darslik. Toshkent. «Moliya Iqtisodw 2008.
5. Столяр А.А. «Методы обучения математике» Минск. «Вершая школа» 1993.
6. Столяр А.А. «Педагогика математики» Минск. «Вершая школа», 1988
7. Фридман Л.М. Как решат задачи. Москва. «Просвещение» 1988.

TA’LIM DA DIDAKTIK O‘YINLAR VA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Xolmatova Ra’noxon Qambaraliyevna
Toshkent shahar Yangihayot tuman
285 -maktabning ona tili va adabiyot o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7259098

Annotatsiya: Didaktik o‘yinlarning asosiy turlari intellektual (aqliy), harakatli hamda aralash o‘yinlardan iborat. Bu o‘yinlar ishtirokchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ta’lim tarbiya jarayonida asosan o‘quvchlarda ta’lim olish motivlarini ularning turli yo‘nalishdagi qobilyat va qiziqishlarini oshiradigan biror kasbga moyilliklarini ko‘rsatadigan didaktik o‘yinlardan foydalaniladi. Ushbu maqolada ta’lim jarayonida didaktik o‘yinlardan interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi haqida metodik tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: Didaktik o‘yinlar, kompyuter vositasi, «Breyn-ring», kichik guruhlar, ta’lim metodi, tarbiya, bilim.

“Ta’lim texnologiyasi” tushunchasi “ Ta’lim metodikasi” tushunchasiga nisbatan kengdir. Ta’lim metodi — o‘quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yo‘naltirilgan o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati usuli bo‘lsa, ta’lim metodikasi esa muayyan o‘quv predmetni o‘qitishning ilmiy asoslangan metod, qoida va usullar tizimini ifodalaydi.

Ta’lim texnologiyasi — ta’lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya’ni, avvaldan loyihalashtirilgan ta’lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo‘lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta’lim jarayonini yuqori darajada boshqarishni ifodalaydi.

Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi — o‘quvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta’lim maqsadiga erishishni ta’minlashdan iborat. Pedagog olim V.P.Bespalko pedagogik tizimni pedagogik texnologiyaning asosi ekanligini e’tirof etgan holda uni quyidagi unsurlaridan iboratdir deya ta’kidlaydi:

1) o‘quvchi; 2) ta’lim -tarbiyaning maqsadi; 3) ta’lim - tarbiya mazmuni; 4) o‘quv jarayoni; 5) o‘qituvchi yoki texnik vositalar; 6) ta’lim-tarbiyaning tashkiliy shakllari. Demak, pedagogik texnologiya ta’lim-tarbiya faoliyatining yaxlit jarayoni to‘g‘risidagi fan ekanligini e’tirof etish lozim. Ayniqsa, o‘qitishga interfaol dars usullarini, “Kichik guruhlarda ishlash”, «Breyn-ring» usullari qo‘llanganda o‘quvchilar o‘qituvchi bilan birga teng faoliyat ko‘rsatadilar.Darsda ta’limning

interfaol usullaridan biri “Kichik guruhlarda ishlash” texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mazkur texnologiyani qo‘llash usuli quyidagilardan iborat: – faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Muammodan bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi;

– kerakli asos yaratiladi. O‘quvchilar mazkur mavzu haqida ko‘proq tushunchaga ega bo‘lishlari kerak;

– guruhlar belgilanadi. O‘quvchilar 7-8 kishidan iborat bo‘lib guruhlarga bo‘linadi;

– aniq ko‘rsatma beriladi. Mustaqil ish, krossvord, test tuzish;

– boshlovchi o‘quvchi oldindan tayinlanadi. O‘tilgan mavzu yoki bo‘lim bo‘yicha mustaqil, o‘z ustida ishlab, savollar tuzib keladi, krossvord, test javoblarini baholaydi;

– ekspert yoki yordamchi (assistent) o‘quvchi tayinlanadi, ular o‘yinni olib borishda yordam beradilar, javoblarni baholab, tahlil qilib beradilar;

– guruhlardan sardorlar saylanadi. Sardor - hushyor shaxs, o‘z guruhi uchun o‘yin qoidalarini buzmagan holda jon kuydiradi;

– o‘qituvchi tomonidan esa jarayon qo‘llab-quvvatlanib va yo‘naltirilib turiladi. U o‘yinni nazorat qilib turadi, o‘yin yakunlangach, o‘quvchilarning umumiy balini e’lon qiladi. So‘ngra muhokama qilinadi;

– doskaga 3ta guruhga bo‘lingan o‘quvchilar familiyasi yozib qo‘yiladi, dars maqsadi bo‘yicha maksimal ballar ko‘rsatilgan bo‘ladi, reja bo‘yicha to‘plangan har bir ball o‘quvchi familiyasi qarshisiga yozilib boriladi.

– O‘qituvchi bilan o‘quvchining o‘zaro ta’siri natijasida o‘quvchi ma’lum bilimlarni shunchaki o‘zlashtirib, ya’ni o‘rganib olishidan tashqari bir vaqtning o‘zida bilim olish va xatti-harakatlar qilishning yangi tamoyili va metodini o‘zlashtirib oladi va rivojlantirib boradi.

– Odatda o‘qituvchi xorijiy tilni o‘rgatish, o‘qitish usulini o‘zi tanlaydi. Kursning mazmuni deyarli o‘zgarmaydi, ammo uni o‘quvchiga yetkazib berish usuli o‘zgarishi mumkin.

– Agar vazifa biror dalil berish haqida bo‘lsa, taqdimot yoki interfaol ma’ruza kabi usullar eng samarali usullar hisoblanadi. Muammolarni muhokama qilishda eng ma’qul usul o‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lib jamoaviy bahs-munozara o‘tkazishdir. Bunda bahs-munozara Discussion, Brainstorming usulidan foydalanish mumkin. Ma’lumki, o‘quvchilarning mustaqil keng va puxta bilim olishlarida syujetli, rolli, ijodiy, ishbilarmonlar, konferensiya, o‘yin mashqlari kabi didaktik o‘yinlar o‘zining ta’lim-tarbiya beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, o‘quv materiallarini takrorlovchi, bilimlarni nazorat qiluvchi o‘yinlar sifatida ifoda etilishi bilan ahamiyatlidir. O‘quvchilarning ijodiy fikrlash, mustaqil bilim egallash ko‘nikmalarini rivojalantirishda ularning o‘zlarida bor bo‘lgan bilim, ko‘nikma,

malakalarini yangi vaziyatda qo‘llash orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirishida didaktik o‘yinlarning o‘rni alohida ajralib turadi.

Ishchanlik o‘yin darsi – dars mavzusi bo‘yicha masalalarni hal etish jarayonida o‘quvchilarning faol ishtirok etishini ta’minlash orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirish mashqi.

Rolli o‘yin darsi – dars mavzusi bo‘yicha masalalarni o‘rganishda o‘quvchilarga oldindan ma’lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu rolni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustahkamlash darsi.

Teatrlashtirilgan dars – dars mavzusi bilan bog‘liq sahna ko‘rinishlari tashkil etish orqali dars mavzusi bo‘yicha chuqur, aniq ma’lumotlar berish darsi.

Kompyuter darsi – tegishli o‘quv fani bo‘yicha dars mavzusiga doir kompyuter materiallari (multimediya, virtual o‘quv kursi va shu kabilar) asosida o‘tiladigan dars.

Kim oshdi savdosi darsi – o‘quv fani ayrim bo‘limi bo‘yicha bilimlarni har bir o‘quvchi qanchalik ko‘p bilishini namoyish etish darsi.

Yarmarka darsi – dars mavzusini bo‘laklar bo‘yicha oldindan o‘zlashtirish o‘quvchilarning o‘zaro muloqat asosida sinfga qiziqarli tushuntirish orqali o‘tiladigan dars.

O‘yin darsi – dars mavzusiga mos o‘yin orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirishlarini tashkil etish darsi.

Sud darsi – o‘quvchilar bilan dars mavzusiga mos “sud” jarayonini tashkil etish orqali yangi mavzuni tashkillashtirish darsi.

Konsert darsi – dars mavzusini sahnalashtirgan holdagi konsert shaklida ifodalash mashqlari bo‘lib, o‘quvchilarni faollashtirish va bilimini mustahkamlash imkoniyatini beradi.

Tergovchi bilimdonlar olib boradigan darsi – dars mavzusini oldindan puxta o‘rgangan o‘quvchilar yordamida qiziqarli savol – javoblar, tahlillar asosida isbotlab, tushuntirish mashqlari bo‘lib, bunda o‘quvchilar dars mavzusini o‘zlashtirib eslab qolishlari uchun qulaylik yaratadilar.

Integral (integratsiyalangan) dars – bir nechta fanlarga doir integratsiyalash uchun qulay bo‘lgan mavzular bo‘yicha tashkil qilingan dars bo‘lib, o‘quvchilarning turli fanlarga qiziqishlarini orttirib ta’lim jarayonidagi faolliklarini taminlaydi. Bunday darslar o‘quvchilarga fanlararo bog‘liqlikni o‘rgatish orqali ularda odam tuzilishining ilmiy asoslarini to‘liq idrok etish, ilmiy dunyoqarashini shakllantirish ijodiy tafakkurlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mo‘jizalar maydoni darsi o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan qiziqarli o‘yinlar bo‘lib turli savollarga belgilangan vaqt davomida to‘g‘ri javoblar topish va g‘oliblarni rag‘batlantirish orqali o‘quvchilarda fikrlash, topqirlik va ziyraklik, bilimlarni kengaytirib borish sifatlarini shakllantiradi.

Didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarni o‘quvchilarning bilim olish va o‘yin faoliyatining uyg‘unligiga qarab syujetli, ro‘lli o‘yinlar, ijodiy o‘yinlar, ishbilarmonlar, konferensiyalar kabi o‘yin mashqlariga ajratish mumkin. O‘qituvchi pedagog, avval o‘quvchilarni individual (yakka tartibdagi) so‘ngra guruhli o‘yinlarga tayyorlashi va uni o‘tkazishi, o‘yin muvaffaqiyatli chiqqandan so‘ng esa ularni ommaviy o‘yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki o‘quvchilar didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko‘nikma, malakalarga ega bo‘lishlari, bundan tashqari guruh jamoasi o‘rtasida hamkorlik, o‘zaro yordam vujudga kelishi lozim. Didaktik o‘yinli mashg‘ulotlar orasida konferensiya mashg‘ulotlari ham muhim o‘rin tutadi. Konfrensiya mashg‘ulotlari o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishda ilmiy dunyo qarashini kengaytirishda, qo‘shimcha va mahalliy materiallar bilan tanishtirishda, ilmiy va ilmiy-ommabob adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalarni orttirish, mustaqil hayotga ongli tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Konfrensiya mashg‘ulotini o‘tishdan oldin mashg‘ulot mavzusini maqsad va vazifalarini belgilab, shu mavzuga oid qo‘shimcha ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar ko‘zdan kechiriladi. Mashg‘ulotni o‘tishdan bir hafta oldin mashg‘ulot mavzusi e’lon qilinib unga tayyorgarlik ko‘rish uchun adabiyotlar tavsiya etiladi.

Ta’lim tizimida yangi pedagogik texnologiyani qo‘llash ma’lum qolip asosida fikrlashni emas, balki umumiy yechimga xilma-xil ijodiy izlanishlar orqali kelishini ta’qozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Zununov. N. Hotamov. J. Esonov. Maktabda adabiyot o‘qitish metodikasi. Toshkent, “O‘qituvchi” 1993.
2. Q.Yuldoshev. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1996.
3. Q.Yo‘ldoshev, O.Madaev, A. Abdurrazoqov. Adabiyot o‘qitish metodikasi, dasturiy qo‘llanma. Toshkent, 1994.

РОЛЬ СМИ В ОСВЕЩЕНИИ ОЛИМПИЙСКИХ ИГР

Пулотов Мухаммаджон Улмасджонович
Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана
М. Тухтамирзаев
Кандидат педагогических наук, доцент
Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана
https://doi.org/10.5281/zenodo.7259106

Аннотация: В данной статье рассматривается роль СМИ в освещении спорта. В статье описывается работа, проделанная в этом направлении на ряде Олимпийских игр. Основная аналитическая работа проиллюстрирована на примере Олимпиады в Пекине. В заключительной части статьи проводимые в Узбекистане реформы показаны в цифрах.

Ключевые слова: спорт, олимпиада, журналистика, СМИ.

Введение

Рассматривая опыт узбекских спортивных СМИ в онлайн-среде, следует сначала уделить внимание развитию интернет-журналистики в целом. На сегодняшний день данная область активно развивается, безусловно ориентируясь на зарубежные примеры. Традиционные СМИ страны проводят целенаправленную модернизацию сетевых изданий и интернет-сферы в целом, используя современные информационно-коммуникационные технологии.

Результаты и обсуждение

С целью поддержки интернет-СМИ в Узбекистане, их деятельность регулируется нормативно-правовой базой, что придаёт своеобразный стимул развитию данного сегмента и определяет требования к ним. Согласно закону «О средствах массовой информации», веб-сайты подлежат регистрации и относятся к электронным СМИ, что позволяет легализовать их и одновременно даёт привилегии, возможности и гарантии[13]. Наряду с правовыми основами, такие общественные организации, как Фонд поддержки и развития негосударственных печатных СМИ и информационных агентств Узбекистана оказывает значительную поддержку в создании веб-сайтов СМИ в рамках различных проектов. Таким образом, электронные СМИ, блоги, социальные сети и различные форумы составляют новую реальность и открывают большие перспективы. Сегодня в Сети имеется множество сайтов, которые специализируются исключительно на освещении событий из мира спорта,

[13] Janowitz M. Professional models in journalism: The gatekeeper and the advocate. Journalism Quarterly, 2019, vol. 52, no. 4, pp. 618–626. doi: 10.1177/107769907505200402.

многие из которых принадлежат спортивным федерациям и ассоциациям Узбекистана. Наряду с ними, спортивную колонку ведут и неспециализированные сайты.

Приступая к анализу применения онлайн-коммуникаций узбекскими СМИ, следует провести краткий экскурс по главному освещаемому событию. Итак, Зимняя Олимпиада в Пекине проходила с 4 по 20 февраля 2022 года. По данным Olympic Broadcasting Service (OBS), она побила все рекорды, став наиболее просматриваемой в истории зимних Игр. Свыше 45 миллионов человек на постоянной основе наблюдали за зимними Олимпийскими играми в Пекине через специальные платформы OBS. Олимпийский контент на страницах OBS во всех соцсетях просмотрели более двух миллиардов раз. Кроме того, был установлен рекорд по количеству контента – за неделю соревнований в Пекине мировые телеканалы показали более 6 тысяч часов соревнований. Для сравнения, за весь период Олимпиады в Токио общий объем контента транслировался 11 тысяч часов. Как сообщил исполнительный директор компании Яннис Экзархос, «большим достижением этой Олимпиады стало использование технологий 4K в освещении соревнований, которые были применены впервые, позволив обеспечить сверхвысокую четкость и разрешение изображения». Ко всему прочему, более 64 миллионов пользователей посетили официальный сайт Олимпийских Игр для просмотра результатов[14].

Китай, являющийся одним из лидеров в области передовых технологий, не мог не показать всему миру свои достижения. Международная компания-лидер в области цифровых технологий Atos, выступающая IT-партнером Игр, представила ряд передовых решений, которые помогли провести Игры в Пекине надёжно и безопасно. В число таких вошли: система управления Олимпийскими играми, которая поддерживала процессы планирования и различные операции (аккредитация, управление персоналом, сайт для волонтеров, расписание соревнований, заявки на участие в спортивных соревнованиях, электронное голосование), а также Олимпийская система распространения, предоставляющая результаты в реальном времени болельщикам, журналистам и телекомпаниям по всему миру. По словам генерального директора компании, «Олимпийские и Паралимпийские зимние игры 2022 года в Пекине привлекли миллиарды просмотров на цифровых платформах, что свидетельствует об их растущей популярности».

В этом году из-за карантинных ограничений особенностью Игр было отсутствие болельщиков, а для журналистов был создан специальный

[14] Hradziushka A.A. Mobile internet as a factor of transformation of Belarus mediasphere. Zhurnal Belorusskogo Gosudarstvennogo Universiteta. Seriya “Zhurnalistika. Pedagogika”, 2022, no. 1, pp. 71–77. (In Russian)

медиацентр. Право на аккредитацию получили свыше 28 тысяч журналистов со всего мира. Китайская медиакорпорация CMG открыла мобильную студию для прямых трансляций с применением технологий 5G в поезде на высокоскоростной магистрали между принимающими городами Пекином и Чжанцзякоу.

Заключение

Как сказал генеральный директор компании Шэнь Хайсюн, «Данный канал – это лучшая площадка для представления плодов технологических инноваций в СМИ, в то время как зрители получили возможность насладиться беспрецедентным прекрасным опытом и чувствовать, как будто они участвовали в мероприятиях лично».

Для исследования были выбраны два крупных спортивных онлайн-СМИ Узбекистана Olympic.uz (30 592 082 посетителей за год), Olamsport.uz (23 430 680 посетителей в год), а также неспециализированное СМИ Daryo.uz (58 446 152 посетителей в год). В выборке были задействованы публикации по данной теме в период с 4 по 20 февраля 2022. Для анализа учитывались такие параметры, как число публикаций в день, число публикаций об узбекских спортсменах, распределение публикаций по датам, авторам и видам спортивных состязаний, жанры публикаций, комментаторы новостей, ссылки на сторонние интернет-СМИ, а также необычные приемы конкретного интернет-СМИ.

Литературы:

1. Janowitz M. Professional models in journalism: The gatekeeper and the advocate. Journalism Quarterly, 2019, vol. 52, no. 4, pp. 618–626. doi: 10.1177/107769907505200402.
2. Lippmann W.K. Liberty and the News. Franklin Classics, 2018. 116 p.
3. Hradziushka A.A. Mobile internet as a factor of transformation of Belarus mediasphere. Zhurnal Belorusskogo Gosudarstvennogo Universiteta. Seriya “Zhurnalistika. Pedagogika”, 2022, no. 1, pp. 71–77. (In Russian)
4. Sokolova D.V. News distribution via Telegram messenger. Mediaskop, 2017, no. 4. Available at: http://www.mediascope.ru/2380. (In Russian)
5. Andrews J. Tackling the digital future of sports journalism: Report for the Robert Bell travelling scholarship. 2011. Available at: www.canterbury.ac.nz/media/documents/reports/robert_ bell_report_april11.pdf.

BOSHLANG‘ICH SINF DARSLARIDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH

Duschanova Sanobar Ruzmomatovna
Xorazm viloyati, Bog‘ot tumani 28-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Saparova Raximajon Xayitmatovna
Xorazm viloyati, Bog‘ot tumani 28-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.725911

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda dars jarayonini tashkil etishda innovatsion metodlardan foydalanish va ularning ayrimlarini qo‘llash borasidagi ba’zi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion, metod, “Kamalak jilosi”, “Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi ...) ortiqcha”.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlash anchayin murakkab jarayon sanaladi. Dastlab o‘quvchilarning xat savodi chiqarilsa, keyin mos ravishda turli fanlar o‘rgatila boshlanadi. Bularning hammasi osonlik bilan kechmay, o‘qituvchidan katta ma’suliyat, iqtidor va ilm ta’lab etadi. Qolaversa o‘quvchilarni har bir darsga qiziqtira olish ham muhimdir. Shunday ekan boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bugungi kun talablaridan kelib chiqib, o‘quvchilarga saboq berishda turli innovatsion metodlarni bilishi va ularni o‘z o‘rnida tadbiq etishi muhim hodisa sanaladi. O‘z o‘rnida qo‘llanmagan metodlar kutilgan natija bermay, o‘quvchilarning darsni o‘zlashtirishlariga aks tasir etishi ham mumkin.

Bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim jarayonida qo‘llashimiz mumkin bo‘lgan yuzlab metodlar mavjud. Ulardan tashqari o‘qituvchining ijodkorligiga qarab yangicha metodlar ham yaratish mumkin. Quyida anashunday o‘qituvchilar orasida keng ommalshgan innovatsion metodlarning ayrimlari haqida to‘xtalib o‘tamiz va ularni ijodiy boyitishga harakat qilamiz.

Innovatsiya – ma’lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishiab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo‘lash muvaffaqiyatga erishishga olib kelishi ma’lum bo‘lgan oxirgi natijadir.

Innovatsiyaning maqsadi - sarflangan mablag‘ yoki kuchdan eng yuqori natija olishdan iborat. Boshqa turli-tuman o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan yangiliklardan farqli o‘laroq, innovatsiya boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi o'zgarishlar mexanizmini tashkil etadi.

Ma’lumki, bugungi kunda dars jarayonida “Aqliy hujum”, “Krassvord”, “Sinkveyn”, “Muzyorar”, “Keys stady”, “Insert”, “Venn diagrammasi” va “BBB”

texnologiyalaridan o‘quv jarayonini tashkil qilishda foydalanilmoqda. Mazkur maqolada dars jarayonining samarasi va sifatini ta’minlashga xizmat qiluvchi yana bir nechta innovatsion metodlarni tavsiya qilamiz.

“Kamalak jilosi” metodini boshlang‘ich sinflar uchun qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Mazkur metoddan ona tili, matematika va o‘qish darslarida ham foydalanish mumkin. Masalan: ona tili darslarida so‘zlarni turkumlarga ajratishda qo‘g‘irchoq, mashina, kuldi, yig‘ladi, sariq, katta, kichik, to‘qqiz kabi so‘zlarni turkumlarga ajratish va ot so‘z turkumiga doir so‘zlarni ko‘k rangli chiziqqa joylashtirish, sifat so‘z turkumidagi so‘zlarni havo rang chiziqqa joylashtirish vazifasi beriladi. Matematika darsida sonlarni xona birliklariga ajratish davomida ushbu metodni qo‘llash mumkin. Ya’ni, kamalakning birinchi rangini bir xonali son deb oladigan bo‘lsak, ikkinchi qatordagi rangi ikki xonali songa misol bo‘la oladi. “Kamalak jilosi” metodi orqali bolalarda quyidagi bilim, ko‘nikma, malakalar va sifatlar shakllanadi: - o‘quvchi ranglar orqali so‘zlarning qaysi turkum doirasiga kirishini eslab qoladi; - o‘quvchida tabiat hodisalari haqidagi tasavvurlar paydo bo‘ladi, ularda atrofmuhit va tabiatga muhabbat, uni asrab-avaylash ko‘nikmalari shakllanadi; - o‘quvchilarning dunyoqarashi va tasavvur doirasi kengayadi, diqqatni jamlash, fikrlash, zehnlilik va topqirlik qobiliyatlari rivojlanadi.

«Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi ...) ortiqcha» metodi: O‘quvchilar mantiqiy tafakkur yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo‘llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- O‘rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;
- hosil bo‘lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo‘lgan to‘rtta (beshta, oltita, ...) va taalluqli bo‘lmagan bitta tushunchaning o‘rin olishiga erishish;
- o‘quvchilarga mavzuga taalluqli bo‘lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;
- o‘quvchilarni o‘z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o‘quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o‘tishlari hamda ular o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni asoslashlarini talab etish lozim).

Mazkur metod o‘quvchilardan o‘rganilayotgan mavzu (yoki bo‘lim, bob) yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi.

Metodni qo‘llashda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

- o‘qituvchi o‘zaro teng nisbatda mavzuga (bo‘lim, bob) oid va oid bo‘lmagan asosiy tushunchalar tizimini yaratadi;
- o‘quvchilar mavzuga (bo‘lim, bob) oid va oid bo‘lmagan asosiy tushunchalarn aniqlaydilar va daxldor bo‘lmagan asosiy tushunchalarni tizimdan chiqaradilar;

• o‘quvchilar o‘z harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.

Metoddan individual, guruhli va ommaviy shaklda o‘quvchilar tomonidan mavzuning puxta o‘zlashtirilishini ta'minlash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin.

1-sinf darsligidagi «Oshxona jihozlari», «Qushlar», «Uy hayvonlari va parrandalar» kabi mavzularini o‘rganishda yangi mavzuni mustahkamlash uchun mazkur metodni qo‘llash ijobiy natija beradi. Bunda mavzuga oid to‘rtta va taalluqli bo‘lmagan (ortiqcha) bitta so‘z (tushuncha, fikr) beriladi.

O‘quvchilar ana shu so‘zni (tushuncha, fikr) aniqlaydilar.

Masalan, 1-sinf darsligidagi 1-mashqda berilgan topshiriqni bajarishda quyidagicha qo‘llash mumkin. Yozuv ekranda ko‘rsatiladi. O‘quvchilar ortiqcha so‘zni aniqlashadi.

Uy hayvonlari: *sigir, qo‘y, toshbaqa, ot, it.*

So‘ng bu so‘zlar ishtirokida gap tuzish topshirig‘i beriladi va tuzilgan gaplar asosida axloqiy tarbiya beriladi.

Namuna: *Ot - insonning eng ishonchli do‘sti.*

O‘quvchilar tomonidan tuzilgan gaplar asosida o‘quvchilar qalbida ona tabiatga muhabbat uyg‘otiladi, uy hayvonlariga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lishga o‘rgatiladi.

Yuqorida respublikamizda faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilarning ta’lim jarayonida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan innovatsion metodlari haqida qisqacha to‘xtaldik. Ushbu metodlarni har qaysi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z darslarida qo‘llashi va o‘zlari ham unga ijodiy yondashgan holda qo‘shimchalar kiritishi mumkin. O‘ylaymizki boshlang‘ich sinflarda innovatsion metodlarni qo‘llash orqali o‘tiladigan darslar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishlarini ortishiga va o‘qituvchi uchun ham darsni yaxshi tashkil etishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Raxima Mavlvanova, Nargiz Raxmankulova. Boshlang'ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va intergatsiya. Toshkent. 2013.

2. N.M.Qo‘chqorova. Boshlang‘ich sinflarda innovatsion metodlarning ahamiyati. "Science and Education" Scientific Journal October 2020 / Volume 1 Issue 7

3. https://kun.uz/uz/news/2019/11/27/boshlangich-sinfda-oqitishning-zamona-viy-texnologiyalaridan-foydalanish-usullari

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH DARSLARIDA CHET EL BOLALAR ADABIYOTI NAMOYANDALARINI O‘RGANISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Nilufar Do‘siyazova Ulug‘bekovna
Xorazm viloyati Yangibozor tumani
26-umumta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7304851

Annotatsiya: maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish darslarida chet el bolalar adabiyoti namoyandalarini o‘rganish xususida. Shuningdek, muallif ushbu maqola orqali o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish bilan birga, ularning lug‘atini boyitishga, og‘zaki va yozma nutqini to‘g‘ri shakllantirish va nutq madaniyatini o‘stirishga ham to‘xtalib o‘tgan.

Kalit so‘zlar: Davlat ta`lim standarti, ko'nikma, nutq o'stirish, pedagogik texnologiya, metod, ta’lim-tarbiya, o‘quvchi, adib.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi o'qish mashg'ulotlari orqali amalga oshiriladi. O'qish va nutq o'stirish darslari jarayonida Davlat ta`lim standarti belgilagan mavzular asosida o'quvchilarga muayyan bilim beriladi. O'qish ko'nikmalarini takomillashtira borish bilan bir qatorda o'quvchilarni barkamol yetuk inson ruhida tarbiyalash vazifasi ham diqqat markazda bo'ladi. Boshlang'ich ta'limda o'qish va nutq o'stirish dasturining maqsad va vazifalariga ko'ra o'qish mashg'ulotlari orqali o'quvchilar to'g'ri, ongli, ravon, tez va ifodali o'qishga o'rgatiladi. Bolalar bu jarayonda kitob bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'la boradilar va ularga kitobga muhabbat tuyg'usi uyg'otiladi.

O‘qish darslarining asosiy vazifasi bolalarda xalq og‘zaki ijodiga, adabiyotga qiziqish uyg‘otish, kitobni sevish, undan mustaqil foydalana olish ko‘nikmalarini shakllantirish, ma’naviy barkamol insonni tarbiyalashdan iborat. Albatta, bular muayyan asar ustida ishlash orqali amalga oshiriladi. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida chet el adiblarining asarlarini o‘qish, asar matni ustida ishlash uchun dars soatlari ajratilgan.

O‘qish darslarida bolalarning ijodiy faolligini oshirish uchun o‘quvchilarning o‘qilgan va kuzatgan materiallar asosida asarni sahnalashtirish, hikoya qilish, og‘zaki hikoyalar tuzish, rollarga bo‘lib o‘qish, tanlab o‘qish kabi topshiriqlarni bajartirish foydalidir. O‘qish darslarida o‘quvchilar asarning o‘xshatish, sifatlash, mubolag‘a, jonlantirish kabi badiiy-tasviriy vositalarni, yaqin ma’noli, qarama-qarshi ma’noli, ko‘p ma’noli so‘zlar, iboralar ustida ishlashni, she’riy asarlarni o‘qiganda misralarni sharhlashni o‘rganadilar. Bu esa o‘quvchilarning estetik didini oshirish imkonini

beradi. O‘qish darslari tevarak-atrof, ijtimoiy foydali mehnat bilan o‘zaro uzviy bog‘liq holda bo‘lishi lozim. Bolalarni o‘qishga o‘rgatishda ularning ko‘rgan bilgan voqealaridan, shuningdek, ilg‘or pedagogik texnologiya metodlaridan foydalanish ham nazarda tutilgan.

Asrlar osha xuddi ertak kabi eldan-elga, tildan-tilga o`tib dillarni yashnatib yurgan ”Qizil Shapkacha” (Sh.Perro), ”Robinzon Kruzo” (D.Defo), ”Gulliverning sayohatlari” (J.Svift), ”Dyumchaxon” (X.Andersen), ”Oltin baliq” (A.S.Pushkin), ”Tom Soyerning boshidan kechirganlari”, ”Shahzoda va gado” (M.Myen), ”Kapitan Grant bolalari”, ”Ostin-ustin” (J.Vern), ”Don Kixot” (J. Servantes) kabi asarlar yosh qalblarda olamga nisbatan qiziqishlarni jo`sh urdirib yuboradi.

XX asrda bunyod etilgan ”Maugli” (R.Kipling), ”Kichkina Shahzoda” (A. De Sent-Ekz Yuperi), ”Katta va kichik Karlson” (A. Lindgren), ”Toshkent – non shahri” (A. Neverov), ”Vinni Pux” (A. Miln), ”Ahmoq sichqoncha haqida ertak” (S.Marshak), ”Uch baqaloq” (Yu. Olesha), ”Quvnoq Japbaqlar” (B. Kerboboyev), ”Doktor Aybolit” (K.Chukovskiy), ”Timur va uning komandasi” (A.Gaydar), ”Chipollinoning sarguzashtlari” (J.Rodari), ”Styopa amaki” (S. Mixalkov), ”Kim bo`lsam ekan?” (V.Mayakovskiy), ”Bilmasvoy quyosh shahrida” (N.Nosov) singari olam kezib yurgan asarlar o`zbek kitobxon bolalarida ham katta taassurot qoldirmoqda.

Yuqorida tilga olingan asarlar yosh kitobxonni nimagadir o`rgatadi, nimagadir da’vat etadi. Bu asarlarning katta ko`pchiligida ona- Vatanga muhabbat, uning ozodligi va baxti uchun jon fido qilish “Uch baqaloq”); noshukr bo`lmaslik, ota-ona pand-nasihatiga quloq solish (“Ahmoq sichqoncha haqida ertak” ); inson va insonga mehr ( “Maugli”); tabiatni asrash, hayvonot olamini sevish “Doktor Aybolit”); odamlar xizmatini qilish, beminnat yordam ko`rsatish (“Timur va uning komandasi”); o`ziga pishiq puxta bo`lish, ichki sirlarni o`zgalarga oshkor qilmaslik “Qizil Shapkacha”); namunali o`qish, kasb-hunar egasi bo`lish “Kim bo`lsam ekan?”); sergak, tadbirkor, quvnoqlikka intilish “Quvnoq Japbaqlar”dek olijanob g‘oyalarning yotishi bolalarning tarjima asarlariga nisbatan bo`lgan qiziqish va ishtiyoqlarini o`stiradi.

O‘quvchi matnni to‘g‘ri, tez, tushunib o‘qish, mazmunini o‘zlashtirish bilan ilk bor o‘qish darslarida yuzlashadi. O‘qish darslari orqali o‘quvchilarning Davlat ta’lim standartlari (DTS) talablari bo‘yicha o‘zlashtirishlari ko‘zda tutilgan o‘quv-biluv ko‘nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo‘l ochiladi. Aynan o‘qish ta’limida insonning, avvalo, o‘zligini, qolaversa olamni anglashga bo‘lgan intilishlariga turtki beriladi.

Umuman, «O‘qish kitobi» darsliklaridagi barcha mavzular o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish bilan birga, ularning lug‘atini boyitishga, og‘zaki va yozma nutqini to‘g‘ri shakllantirish va nutq madaniyatini o‘stirishga ham qaratiladi.

Amaldagi «O‘qish kitobi» darsliklarida materiallarning sinfdan sinfga o‘tgan sari mavzu jihatidan ham, mazmun jihatidan ham kengaya borishi hisobga olingan.

Sinfdan sinfga ko‘chish bilan yozuvchi hayoti va ijodi haqidagi o‘quvchilar bilimi ortib boradi. Asar muallifi bilan tanishtirishga qo‘yilgan talablar ham ko‘payadi. O‘qituvchi qisqa ma’lumot berishdan yozuvchi hayoti bilan to‘liqroq tanishtirishga o‘tadi. Bunda u kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning yoshiga mos imkoniyatlarni, ular yozuvchi bilan qay darajada tanish ekanligi va uning asarlaridan nimalarni o‘qiganligini hisobga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Matchonov S., G`ulomova X. va boshqalar. Boshlang`ch sinf o`qish darslarini pedagogik texhologiyalar asosida tashkil etish.- Toshkent: “Yangiyul Poligraph servise”, 2008.
2. Nazarova H., Anorboyeva A. O`qish darsi- nafosat olami // Boshlang`ich ta’lim, 2008, 11-son.
3. Qosimova K., Matchonov S. , G'ulomova X., Yo`ldasheva SH., Sariyev Sh. Ona tili o`qitish metodikasi. -Toshkent, «Nosir», 2009

Eslatma! “Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnaliga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

Bosh muharrir

Abdumannonov Islomjon Ikromjon o‘g‘li

Mas’ul muharrir

Isroilov Ozodbek Saydullajon o‘g‘li

Nashrga tayyorlovchi

Abdullayev Ravshanjon Inomjon o‘g‘li

“Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnali, 2022-yil. 142 bet.
© Talqin va tadqiqotlar, 2022
© Mualliflar jamoasi, 2022